

Qishloqdagi kichik maktablarda katta muammolar

Maktabdagi fan o'qituvchilari esa maktab sha'ni uchun ketgan o'quvchining davomini a'lo baholarga to'ldirib boradi. Negaki, biz bu yerda berolmagan bilimni olis hududlarda o'quvchilarimiz repetitorlar orqali o'rganishmoqda.

2-bet

Jurnalistik surushtiruv

Buyruq ortidagi mashmasha yoxud rahbarlarning asosiy faoliyati va vakolatini bilmasligi nimalarga olib kelishi mumkinligi haqida

Uch yildan buyon ishlab yurgan o'qituvchining arizasi va buyrug'i bo'lmasa, bunga mutasaddilar javob berishi kerak.

3-bet

Ilmsizlik va ma'naviyatsizlik "botqog'i"

yoxud TikTokning zararli oqibatlariga haqida

Jamiyatda tayinli o'z o'rniga ega bo'lmagan ayrim shaxslar o'zlarini "tanitish", "iqti-dori"ni ko'rsatish orqali nimanidir isbotlashga intilmoqda.

11-bet

Kuch — bilim va tafakkurda

Marifat

1931-yildan chiqq boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2021-yil 10-mart, chorshanba № 10 (9335)

Xalq ziyolilari gazetasi

Shogirdlarining shogirdlari ijodida ustoz To'ra Mirzayev ishlari davom etadi



14-bet

"Bizda malaka oshirish istagini bildirganlar yo'q" mazmunidagi xatlar Markazga rus tilida kelmoqda



Markaz tashkil etilganiga bir yil bo'ldi. Bu vaqt davomida muayyan vazifalar bajarildi, bajarilmoqda. Lekin muammolar ham bor:

- ayrim tashkilot rahbarlarining xodimlarni malaka oshirishga jo'natishga sovuqqonlik bilan qarayotganligi;
- Vazirlar Mahkamasi qarorida belgilangan bo'lsa-da, Toshkent shahar hokimligi hamon Markazga bino ajratib bermaganligi;
- Markaz davlat muassasasi sifatida ro'yxatga olingan bo'lsa-da, Moliya vazirligi davlat budjetidan mablag' ajratmayotganligi...

4-5-bet

Bizni internetda ham kuzating! www.marifat.uz [f /marifat.uz](https://www.facebook.com/marifat.uz) [@marifatziyo](https://www.instagram.com/marifatziyo)

O'qituvchi nimani o'ylaydi?



Maktablar faoliyati ranglarda ifodalani-shi — bir tomonlama yondashuv. Kimdir oliy ma'lumot ham kelajagini qurmoqda. To'g'ri, maktabda sifatli ta'lim-tarbiya uchun direktor javobgar. Lekin yashil rangdagi maktab o'quvchilarining OTMga kirishi ko'rsatkichlarida maktab o'qituvchilarining qanchalik va repetitorlarning qanchalik hissasi borligini aniqlashtirish kerak. "Mehnat repetitorini, olqish maktab direktori va o'qituvchilarini" degan aqidani o'z o'rni va o'z amaliy ahamiyatiga baho berib aytgan ma'qul. Bugun rangini yaxshilash uchun direktor ham, jamoa ham sifatli ta'lim berayotganiga e'tibor qaratish kerak. Qaysidir jamoa mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan bo'lsa, yana qaysidir maktab o'quvchilari nomigagina maktabga aloqador bo'lib kun bo'yi repetitor yonida kun o'tkazmoqda.

Nodirbek USMONOV

Meni doim bir narsa o'ylantiradi, kutubxona xodimlari uchun ham rasmiy forma ishlab chiqilsa qanday bo'larkan? Ichi ishlar xodimlari, shifokorlar, o'qituvchilar, obodonlashtirish ishlari xodimlarini ko'riboq qaysi kasb egasiligini darrov anglaymiz. Ta'limga muhim o'rinda turuvchi kutubxonachilarda esa bu jihat negadir e'tiborga olinmagan. Kutubxonachining alohida formasi bo'lishi — uning nufuzi bir pog'ona oshishiga, umumiylikka singib ketmasdan alohida kasb sifatida ko'zga tashlanishiga va bu o'z navbatida kutubxonachilarda kasbiga nisbatan faxr, iftixor tuyg'ularini uyg'otib, yanada ma'suliyatli bo'lishlariga zamin yaratadi deb o'ylayman. Kutubxonachi imiji yaratilishi eng katta orzularimdan biri. Bu balki qachondir amalga oshar.

Shahnoza RO'ZIYEVA

Muallimning qadri Yaponiyada unday, Finlandiyada bunday, bizda esa yaxshi emas deya noliydigan o'qituvchilarga aytar so'zim bor. Noliydigan bo'lsa, negiz, yaxshisi, maktabda ishlamang. Ishlasangiz, hurmat va qadr o'z o'zingizda. Boshqalar oldida o'zini bechora ko'rsatib, doim ishidan norozi bo'lganlar dardini rahbarlarga ayta olmaydi. Bunday muallim loqayd, bemehr robotlarni yetishtirib chiqaradi. Qachonki, mam-nubiyat bilan ishlasak, nolishni kamaytirsak, ishimizda unum va baraka bo'ladi, o'quvchilarimiz orasidan haqiqiy INSONLAR chiqadi.

Qishloqlik O'qituvchi

Aks sado

Ona tilim og'riqlari

(“Ma'rifat” gazetasining 2021-yil 24-fevral sonini o'qigandan so'ng)

Gazeta muharririning feysbukdagi chorlovidan so'ng: “ushbu sonni albatta o'qishim kerak”, dedim. O'qidim. Haqiqatan ham “tosh bosadigan” son bo'libdi. Til haqida qayg'urib bildirilgan fikrlar kishini o'ylashga majbur etadi. Jumladan, “Qish g'amini yozda ye yoki lotin alifbosi xususida ayrim mulohazalar...” (Nodir Mirhodiye) maqolasida ko'tarilgan masalalar juda dolzarb bo'lib, uni muallif alohida mavzularga bo'lgan holda soddada va tushunarli qilib ifodalagan. Ayniqsa, bugun o'zlashma so'zlarni har kim o'zicha yozayotgan paytda bildirilgan fikrlar juda o'rinli bo'lib, ushbu mulohazalarga mutaxassislar e'tibor qaratsa va yangi tayyorlanadigan imlo qoidalarida buni inobatga olishsa yaxshi bo'lardi.

Gazetani o'qishli qilgan maqolalardan yana biri “Tanganing ikkinchi tomoni”dir (Dildora Najmiddinova). Unda talaba qizimiz bugun jamiyatimizning og'riqli nuqtalaridan bo'lgan ona tiliga bepisandlik masalasini ko'taradi. Oilalarda boshqa tilda so'zlashishga ishtiyoqning balandligiga alohida urg'u beradi. Ushbu fikrlar kishini o'ylantiradi: bunga o'zimiz sababchi emasmiz? Axir o'zimiz emasmiz ona tilimizni boshqa tillar oldida imtiyozsiz qilib qo'yg'an? “Qadriyatlar beshigi” (Muhiba Rajabova) maqolasida ona tili va adabiyot fanlarini kichik guruhlarda o'qitish masalasiga e'tibor qaratilgan bo'lsa, “Tilimiz – ko'rkimiz” (Muzaffar Ismoilov) maqolasida tilimizda so'zlarni to'g'ri qo'llash bo'yicha fikrlar bildiriladi. Jumladan, “Ustoz otangdek ulug'” shaklida emas, Ustoz otangdan ulug' tarzida qo'llash to'g'ri ekanligi haqidagi fikr juda o'rinlidir. Mulohazaga chor-

laydigan maqolalardan yana biri “Milliy yozuvimiz bormi?” (Mahmud Qahhorov)da tariximizni o'rganish, o'zligimizni anglashda arab alifbosining va u asosidagi o'zbek alifbosining ahamiyati haqida so'z yuritiladi, bu ham bugungi kunimizning eng dolzarb mavzularidan biri hisoblanadi. Negaki, biz har ikki gapning birida milliy o'zlik, buyuk ajdodlarimiz deb og'iz ko'pirtiramyz. Xo'sh, o'sha o'zlikni anglashning, buyuk ajdodlar merosini o'rganishning asosi nima? Bu arab yozuviga asoslangan alifbomiz emasmiz? Demak, biz yoshlarimizga ushbu alifboni ham o'rgatishni o'ylab ko'rishimiz, hech bo'lmaganda filologiyaga ixtisoslashgan maktablarda uni o'qitishni yo'lga qo'yishimiz lozim. Muallif ta'kidlaganidek, o'tgan asrning 90-yillarida bu borada yaxshi ishlar amalga oshirilgan edi. Afsuski, keyinchalik bu to'xtatib qo'yildi.

Endi yozma savodxon-

ligimizning eng og'riqli nuqtasi bo'lgan o'sha mashhur qattiqmi yumshoqmi bilib bo'lmaydigan X-H lar haqida. Bu borada “Yumshoq X mi, qattiq X” (Ummat Haydarov)da fikr bildirilgan. Umuman, ushbu tovushlarni farqlay olmaslikka biz o'quvchilarni boshlang'ich sinflardayoq o'zimiz “o'rgatamyz”. Bolaga mana bu H, mana bunisi X deb talaffuz qilib ko'rsatmaymiz-da, bunisi qattiq, bunisi yumshoq deb qo'ya qolamyz! O'quvchi esa qaysi biri qattiq-yumshoqligini butun umr farqlay olmay arosatda qoladi. Bu tovushlarni ajrata olish ko'nikmasi, avvalo, o'qituvchilarning o'zida bo'lishi kerak. O'qituvchi o'zbek tilida qattiq-yumshoqlik hodisasi yo'qligini bilsagina o'quvchiga ham ushbu tovushlarni farqlay olishning to'g'ri yo'llarini ko'rsata oladi.

Ona tilini o'qitishda grammatikabozlikdan voz kechish kerakligi bot-bot yangramoq-



daki, bu degani ona tilini to'liq grammatikasiz o'qitish kerak degani emas. Faqatgina o'quvchilarda matn bilan ishlash, uni tushunishda o'sha grammatik qoidalarini qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirish lozim. Til grammatik qoidalarisiz yashay olmaydi. O'quvchi matnda ma'lum bir so'zdan yoki qo'shimchadan foydalanar ekan, uning grammatik asosini bilishi kerak. Shundagina uning o'zini qo'llay oladi. Demak, biz ona tili ta'limida o'quvchilarga grammatik qoidalar singdirilgan matnini tahrir va tahlil qila olishni, so'zni his qilishni o'rgatishimiz kerak. Shu kabi fikrlar gazetasining 9-sahifasidan o'rin olgan “O'quvchiga faqat grammatikani o'rgatish kerakmi?” (Akramjon Hayitov) maqolasida berilgan. “Millat oldidagi

burch” (Omiljon Ahmadjonov) maqolasi esa ushbu sonning gultoji bo'lgan deiyish mumkin. Unda lotin yozuvidagi alifbomizning yutuq va kamchiliklari, uni isloh qilish bo'yicha takliflar berilganki, e'tiborga olish lozim bo'lgan fikrlardir. Shuningdek, so'zlarni o'zlashtirishda imkon qadar tilning ichki imkoniyatlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Jumladan, bugun tilimizga deyarli o'zlashib bo'lgan **siti** so'zini shaharcha deiyishni tavsiya etadi. Shu o'rinda bir mulohaza tug'iladiki, so'nggi paytda o'zlashayotgan so'zlarning muqobilini berishda biroz kech qolayotgandekmi. Bir so'z o'zlashadi, uni hamma “hazm” qiladi. Keyin esa biz uning muqobilini aytib yuramyz. Xorijiy so'z o'zlashgandan keyin emas, o'zlashmasdan oldin muqobilini topish va qo'llash samaralroq bo'lardi. Buning uchun xorijiy so'zlarni zo'r berib tiqishtirayotganlarni nazorat qiladigan, ularni kerak bo'lsa, jazolaydigan bir tashkilotga bugun ehtiyoj bor.

Bundan tashqari, metodik yo'nalishlardagi bir qancha materiallar ham berilganki, ular bilan bevosita tanishib chiqish o'quvchilar uchun foydadan xoli bo'lmaydi.

Xulosa shuki, ona tilimizga befarq bo'lmagan gazetaning ushbu sonini o'qib chiqishlarini, undagi bildirilgan fikrlardan o'z faoliyatlarida foydalanishlarini tavsiya qilaman. E'tiborli jihati shundaki, maqolalarning deyarli barchasi amaliyotchi o'qituvchilar tomonidan yozilgan.

Zohid SHAKAROV,
Davlat test markazi
direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili haqidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi

Og'riq

Qishloqdagi kichik maktablarda katta muammolar

Qishloq maktablarida OTMlarni tamomlagan oliy ma'lumotli o'qituvchilarni qo'shni viloyat va tuman, qishloqlardan ishga jalb qilish orqali bo'sh ish o'rinlari to'ldirilyapti. Har bir ota-ona o'z farzandining bilimli mutaxassis qo'lida chuqur salohiyat egasi bo'lib yetishishini, kelajakda o'z o'rnini topishini xohlaydi. Buning uchun bor imkoniyatlarni yaratib beradi. Lekin maktabga men oliy dargohni tamomlaganman, falon fanning mutaxassisiman, degan iddao bilan keladigan o'qituvchilar o'z ustida ishlay oloyaptimikan?

Ularni oliy ma'lumotli mutaxassislar deymiz-u, ammo nega hali-hamon o'quvchilarimizning darslarni o'zlashtirishi past? Nega o'quvchilar boshlang'ich sinfda yaxshi o'qishadi-yu, yuqori sinfga o'tgandan keyin bilim darajasi pasayib ketaveradi? O'quvchilarni o'z fanimizga jalb qilolmayapmizmi yoki ular buni xohlashmayaptimi? Nahotki, o'quvchi-

larimizni o'z fanimizga jalb qilolmasak? Nahotki, bir sinfdagi atigi 10-15 o'quvchining o'zlashtirishini ko'tara olmasak. Aslida, maktabdagi bor-yo'g'i 150 o'quvchiga 40 nafar o'qituvchi dars berishining nima keragi bor?!

Maktablarni bitiruvchilarning OTM-larga kirish ko'rsatkichiga qarab yashil, sariq, qizil hududlarga bo'lishdi. Bu

borada past natija ko'rsatgan maktab rahbarlari o'z vazifalaridan ozod qilindi. Endilikda ular o'rniga tayinlangan yangi rahbarlar qizil hududlar ro'yxatiga tushmaslik maqsadida chora-tadbirlar ko'rishmoqda. Buning yechimini esa o'z maktabida ishlayotgan ishchi xodimlardan emas, balki olis hududlarda joylashgan shaharlardagi repetitorlardan qidirishmoqda. Biroq bunga ham faqat imkoniyati yetarli bo'lgan ota-ona rozi bo'ladi. Tayyorlovga ketgan o'quvchi 2 yoki 3 fandan tayyorlangani bilan, qolgan fanlari o'zlashtirishsiz qolaveradi.

Maktabdagi fan o'qituvchilari esa maktab sha'ni uchun ketgan o'quvchining davomatini a'lo baholarga to'ldirib boradi. Negaki, biz bu yerda berolmagan bilimni olis hududlarda o'quvchilarimiz repetitorlar orqali o'rganishmoqda. Ertaga

OTMlarga o'qishga kirib qolsa, o'sha o'quvchiga men dars berganman, deb ko'kragimizni kerib ham qo'yamiz.

Qachongacha bu muammolar bilan birga yuramyz? Qachon bu muammolar oxiriga yetarkan?

Farzandlarimizni olis hududlarga yuborib o'qitgandan ko'ra, olis hududlardagi bilimlarni olib kelib beraylik. O'z malakamizni ko'proq oshiraylik. Toki, ular bizdan minnatdor bo'lsin. Davlatimiz rahbari aytganidek, o'qituvchilik kasbi eng obro'li kasbligini his qilib, o'z kasbimizga sadoqat bilan yondashaylik. Va albatta, bu kasbga munosib bo'laylik!

Anvar ESHAYEV,
Qo'shrabot tumanidagi
4-maktabning boshlang'ich
sinf o'qituvchisi

Jurnalistik surishtiruv

Buyruq ortidagi mashmasha

yoxud rahbarlarning asosiy faoliyati va vakolatini bilmasligi nimalarga olib kelishi mumkinligi haqida

Ertaoq maktabga kelgan Nilufar xonani zarur ko'rgazmali jihozlar bilan boyitdi. Ikki kun avval o'quvchilari bergan savollarga javob berish uchun astoydil tayyorgarlik ko'ra boshladi. Birin-ketin sinfga kelgan o'quvchilar dars noan'anaviy o'tilishi, ayniqsa, mavzu elektron ko'rgazmalar bilan tushuntirilishini bilgach, xursand bo'lib ketishdi.

O'quvchilarga zavq bilan dars o'tatgan muallima ularning har bir savoliga javob qaytarib, mavzuni astoydil tushuntira boshladi. Bolalar diqqat bilan tinglashardi. Nogahon eshik lang ochilib, direktor o'rinosari "Sizni direktor chaqirtirdi. Zudlik bilan chiqarkansiz" dedi-yu, eshikni yopib qo'ydi. Diqqati bo'lingan bolalar o'sha tomonga qaradi. Nilufar To'rayeva darsni tugatishi bilanoq direktor xonasi tomon oshiqdi.

— Chaqirgan vaqtda kelishni o'rganing, sizni chaqirtirganimga ancha bo'ldi-ku, — deya baqirdi o'qituvchining salomiga alik olmagan maktab direktori Abdumannon Abdullayev. — Ishga kirganlik haqidagi buyrug'ingiz bo'lmaning sababli darslaringizni boshqa o'qituvchilarga bo'lib beraman.

— Nega? Uch yildan buyon bolalarga saboq berayotgan bo'lsam. Nega buyrug'im bo'lmaydi? — ajablanib so'radi muallima.

— Uni o'zingizdan so'rang. Bo'lmasa, ishga kirayotganingizdagi yozgan arizangiz bilan buyrug'ingizni ko'rsating, — dedi mehnat qonunchiligidan xabari yo'qdek direktor. — Buyrug'ingiz yo'q. Olgan oylik maoshlaringizni ham qaytarib to'laysiz. Prokurorga yozib beraman, sudga oshiraman.

— Bu nima deganingiz? Arizam bilan buyrug'im o'zimdagi bo'lmaydi-ku? Qanday qilib o'z arizam bilan o'zimga buyruq chiqarib olishim mumkin? Qolaversa, buyruq mening qo'lmda emas, maktabda saqlanmaydimi?

— Menga aqllilik qilmang. Dastavval yarim stavkada ishga qabul qilingansiz. Bugunga kelib ishingiz bir stavka bo'lib qolgan, — deydi direktor nimagadir sha'ma qilgandek. — Xullas, gapning qisqasi, sizning arizangiz ham, buyrug'ingiz ham yo'q. Maktabdan o'z ixtiyoringiz bilan ketmasdan o'polon qiladigan bo'lsangiz, bilib qo'ying, uch yillik olgan oylik maoshingizni qurtdek sanab qaytarib to'laysiz, vassalom. Endi ketavering, jimgina, boshqa gapim yo'q.

Rahbarning O'zbekistonda belgilab qo'yilgan mehnat qonunchiligiga umuman yot bunday gaplaridan ta'sirlangan Nilufar To'rayeva o'zini bilmay yiqildi. Maktab direktori tobi qochib yiqilib qolgan muallimning yonidan hech narsa ko'rmagandek o'tib ketdi... Birozdan so'ng tez tibbiy yordam mashinasida kelgan shifokor tobi qochib qolgan muallimaga tez yordam ko'rsatdi.

Bu voqea joriy yilning 28-yanvar kuni Denov tumanidagi 75-maktabda yuz berdi.

Tuman 2019-yili 193-o'tgan yili esa 191-o'rinda

Denov tumani 2019-yilda maktab bitiruvchilarining oliy o'quv yurtiga o'qishga kirish ko'rsatkichlari bo'yicha respublikamizdagi 203 tuman ichida 193-o'rinni, o'tgan yili esa 191-o'rinni qayd etgan...

Bu misoldan ko'rsak bo'ladi, tumanda ta'lim sohasida muammolar yetarli... Ma'lum bo'lishicha, 75-maktab direktori A. Abdullayev mutaxassisligi bo'yicha nopedagog ekan. Dastavval o't o'chiruvchi bo'lib ishlagan, Yong'in xavfsizligi oliy texnik maktabini tugatgan.

Direktor A.Abdullayev pedagog ma'lumotga ega emasligidanmi, vazifasini, vakolatini, ish tutumini umuman bilmaydi. Rahbar etib tayinlanganiga ko'p vaqt bo'lmagan bo'lsa-da, bilimsiz ekanligini bir necha marotaba oshkor etib qo'ydi. Agar o'z vakolatini bilganda vaziyatni qonuniy yo'l bilan hal qilgan bo'lardi.

Denov tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri Erkin Ahrorov fikri bilan qiziqdik:

— Xalq ta'limi vazirining o'tgan yil 25-dekabrda 315-buyrug'iga asosan "Umumta'lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarni tavsiya etish va ish beruvchining tashabbusiga ko'ra lavozimdan ozod etish yuzasidan xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlariga taklif kiritish tartibi to'g'risidagi Nizom"ning 6-bandiga asosan 75-maktabga direktorlik vazifasini A.Abdullayevga topshirgan edik, — deydi mudir.

Sanamay sakkiz deyish oqibati

Xo'sh, o'qituvchi o'z arizasiga ko'ra qachondan buyon o'ziga buyruq chiqaradigan bo'ldi? Endi shu savolni muhokama qilaylik. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 82-moddasi "Ishga qabul qilishni rasmiylashtirish tartibi" deb nomlanadi. Unga ko'ra, "Ishga qabul qilish ish beruvchining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi. Buyruq chiqarish uchun xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi asos bo'ladi...". Qolaversa, rahbar unga berilgan vakolatlar doirasida xodim bilan

mehnat shartnomasini tuzadi. Ishga qabul qilish haqidagi buyruq tuzilgan mehnat shartnomasining mazmuniga to'la muvofiq ravishda chiqariladi.

Buyruq xodimga ma'lum qilinib, tilxat olinadi. Ishga qabul qilish huquqiga ega bo'lgan mansabdor shaxs tomonidan yoki uning ijozati bilan xodimga haqiqatda ishlashga ruxsat etilgan bo'lsa, ishga qabul qilish tegishli ravishda rasmiylashtirilgan yoki rasmiylashtirilmaganligidan qat'i nazar, ish boshlangan kundan e'tiboran mehnat shartnomasi tuzilgan deb hisoblanadi. Bu borada mehnat qonunchiligi talablari buzilsa, ish beruvchi qonun oldida javobgar bo'ladi.

Uch yildan buyon ishlab yurgan o'qituvchining arizasi va buyrug'i bo'lmasa, bunga mutasaddilar javob berishi kerak. O'qituvchining vazifasi bolalarga o'z vaqtida darsini o'tish, o'quvchilar ta'lim-tarbiyasiga mas'ul bo'lishdir.

— To'g'risini aytsam, maktabimizda anchadan buyon muhit buzilgan, — deydi (ertaga ishidan ayrilib qolishi-

Inson nosog'lom, adolatsiz muhitda ezilsa, sog'lom ijodiy muhitda esa ishlab charchamaydi. Insonning ko'ngil gavhari musaffo bo'lsagina, ishchanlik qobiliyati oshadi. Qalbidagi ezgu maqsadlariga erishish uchun kuch topa oladi. Shu sababli ayrim ta'lim muassasalaridagi bunday holatlar jamoani ijobiy harakatlanishdan, ijodkorlikdan to'xtatib qo'yadi, oqibatda ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishga to'sqinlik qiladi.

Kimning xatosi bu?

Maktabga ishga qabul qilingan xodimning arizasiga ko'ra direktor buyruq chiqaradi. Bundan har bir maktab direktori xabardor bo'lishi uchun mehnat qonunchiligini puxta bilishi, avvalo, har bir rahbar buning uchun ko'proq o'qishi, izlanishi kerak bo'ladi. Aslida 75-maktab o'qituvchisi Nilufar To'rayevaning arizasiga ko'ra buyruq chiqarilgan. Keyinchalik esa buyruq yo'qolib qolgan ekan, buning uchun muallima aybdor emas-da.

Murojaatga antiqa javob

Nilufar To'rayevaning onasi Robiya To'rayevaning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti virtual qabulxonasiga yozgan murojaatiga tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri "Maktab direktorining qo'pol xatti-harakati tuman xalq ta'limi vakolatiga kirmasligi bo'yicha tuman IIB yoki fuqarolik sudiga murojaat qilish huquqingiz borligi sizga tushuntirildi..." degan mazmunda javob bergan.

Denov tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri Erkin Ahrorov imzo chekkan g'ij-g'ij imlo xatolariga ega ushbu javobdan nimani tushunish mumkin? To'g'ri, maktab direktorining yashash tarzini tuman xalq ta'limi bo'limi nazorat qilolmaydi. Ammo direktorni faoliyati bo'yicha tartibga chaqirish, qo'pol xatti-harakatdan tiyilishga undash mudirning vakolatida emasmi?


Ma'murjon QIYOMOV,
"Ma'rifat" muxbiri
Nigina SHOYEVA,
Sho'rchi tuman hokimligi
axborot xizmati rahbari

PS: Maqola sahifalanayotganda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatiga muallima Nilufar To'rayevaning onasi Robiya To'rayevaning 15-fevraldagi murojaatiga asosan Denov tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri E.Ahrorovning ikkinchi marotaba 24-fevralda imzolagan xati muallifga (avvalgi xati 6-fevralda edi) yuborilganligi ma'lum bo'ldi. Unda esa quyidagicha jumlar bor: "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Veb-saytiga tumanidagi 75-maktab direktorining xatti-harakatlaridan norozi bo'lib qilgan murojaatingizni o'rganib chiqib, quyidagilarni ma'lum qiladi. Sizga qiziqingiz N. To'rayevani 75-maktab direktorining 2021-yil 10-fevraldagi o'rindoshlikdan asosiy o'qituvchiga o'tkazish to'g'risidagi 27-k-sonli buyrug'ini maktab o'qituvchilarining umumiy yig'ilishida o'qib eshittirilganligini ma'lum qilamiz".

Taklif

Soʻnggi yillarda mamlakatimizda oʻqituvchining maqomini oshirish va uni huquqiy jihatdan mustahkamlab qoʻyish masalasi koʻtarildi. Negaki mustaqillikning dastlabki chorak asri mobaynida oʻqituvchilarning maqomi, obroʻsi, ularga yuklatilgan ijtimoiy vazifaga (xalq taʼlimi) mos kelmaydigan darajada edi. Bunga ularning mehnatiga yarasha haq toʻlamaslik, majburiy mehnatga jalb qilish, soliq va kommunal sohalarida mavjud imtiyozlarning bekor boʻlishi, ijtimoiy jihatdan qoʻllab-quvvatlanmasligi sabab boʻldi.

Oʻqituvchining maqomi bugun loyihasi muhokama qilinayotgan qonun bilan mustahkamlab qoʻyiladi



“2018-2020-yillarda Oʻzbekiston Respublikasi xalq taʼlimi tizimini yanada takomillashtirish boʻyicha chora-tadbirlar dasturi”da 2019-yil 1-fevralga qadar Oʻzbekiston Respublikasining “Oʻqituvchining maqomi toʻgʻrisida”gi qonuni loyihasini ishlab chiqish nazarda tutilgandi. Shu bois Xalq taʼlimi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan mazkur qonun loyihasi 2019-yil 11–26-yanvar kunlari normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portaliga qoʻyildi. Muhokama davrida 68 ta taklif kelib tushdi.

Keyinchalik esa qonun loyihasi “Pedagog xodimning maqomi toʻgʻrisida”gi nom bilan almashtirilib, eng katta masʼuliyat Adliya vazirligi zimmasiga yuklatildi. Oʻz navbatida, Adliya vazirligi hamda Xalq taʼlimi va Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirliklari hamkorligida loyiha yanada takomillashtirilib, 2020-yilning 28-noyabridan 13-dekabriga qadar muhokamaga qoʻyildi. Jamoatchilik tomonidan yana 725 ta taklif bildirildi.

Shu oʻrinda Prezidentimiz 2020-yil 30-sentabr kuni Oʻqituvchi va murabbiylar kuniga bagʻishlangan tantanali marosimda ayni qonunning ahamiyati haqida toʻxtalib, “Mamlakatimizning kelgusi taraqqiyotini oʻylab, oʻqituvchi va muallimlarning hayotimizdagi nufuzi va mavqeyini oshirish maqsadida ularning maqomini qonun darajasida belgilashni taklif qilaman. Ushbu qonunda yoshlarga taʼlim va tarbiya berish jarayonida oʻqituvchilar oʻzlarining sahohiyatini toʻliq namoyon etishlari

uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ularni ijtimoiy, huquqiy, moddiy qoʻllab-quvvatlash choralari kafolatlanishi kerak” deya taʼkidlaganini eslash lozim.

Shuni alohida taʼkidlash lozimki, pedagog xodim tushunchasi oʻqituvchilikdan kengroq va bir vaqtning oʻzida ushbu tushunchani ham qamrab oladi. Binobarin, Oʻzbekiston Respublikasining “Pedagog xodimning maqomi toʻgʻrisida”gi qonuni loyihasi esa barcha taʼlim turlarida band boʻlgan xodimlarga taalluqli. Albatta, muhokamalardan soʻng qonun loyihasidagi bir qator munozarali holatlar bartaraf etilgan. Ammo uni yanada takomillashtirish zarurati saqlanib turibdi. Shu bois men ham huquqshunos, ham oʻqituvchi sifatida ayrim takliflarni oʻrtaga tashlamoqchiman.

Avvalo, qonun loyihasining 1-moddasida “Ushbu Qonunning maqsadi pedagog xodimning maqomiga oid munosabatlarni tartibga solishdan iborat” deb koʻrsatilgan. Bizningcha, mazkur qonunda 2 ta asosiy masala bor. Biri pedagog xodim boʻlsa, ikkinchisi uning maqomi. Shu sababli Qonunning maqsadi maqomga oid munosabatlarni tartibga solish emas, balki uning nima ekanligini belgilab olishdan iborat boʻlishi lozim. Chunonchi, 1-moddada “Ushbu Qonun pedagog xodimning huquqlari va majburiyatlari, unga qoʻllaniladigan kafolatlar va imtiyozlar, shuningdek, cheklovlar va javobgarlikdan iborat maqomini belgilaydi” deb koʻrsatilishi toʻgʻri boʻladi. Shuning uchun Qonunning 2-moddasidagi asosiy

tushunchalar roʻyxatidan “pedagog xodimning huquqiy maqomi” degan jumlaning chiqarib tashlash lozim.

Qonun loyihasining 2-moddasida esa ushbu Qonunning amal qilishi “asosiy ish-faoliyatidan tashqari pedagogik faoliyat bilan shugʻullanuvchi, shuningdek, harbiy taʼlim muassasalarida pedagogik faoliyat bilan shugʻullanuvchi shaxslar”ga nisbatan tatbiq etilmasligi haqida qatʼiy qoida belgilangan. Fikrimizcha, bunday yondashuv toʻgʻri emas. Aksincha, mazkur toifadagi pedagog xodimlarga nisbatan mazkur qonunning oʻrindoshlik va harbiy taʼlim toʻgʻrisidagi qonun hujjatlarida belgilangan xususiyatlarni hisobga olgan holda tatbiq etilishini belgilash lozim. Shuningdek, asosiy tushunchalar roʻyxatidan “taʼlim oluvchilar” jumlasini ham chiqarib tashlash maqsadga muvofiq.

Loyihaning 10-moddasida pedagog xodimlar bilan mehnat shartnomasi nomuayyan muddatga belgilanishi haqidagi qoida “qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno” deb toʻldirilishi zarur. Chunki xorijiy mamlakatlar tajribasida sifatli taʼlimga erishishda mehnat shartnomalarini muddatli tuzish amaliyoti ham keng qoʻllaniladi.

Xulosa qilib aytganda, yangi qonunni qabul qilishda bildirilgan taklif va tavsiyalar inobatga olinasa, hujjat yanada takomillashtirilgan boʻlardi.

Shuhrat ISMOILOV,
Toshkent davlat yuridik universiteti
kafedra mudiri,
yuridik fanlar doktori

“Bizda malaka mazmunidagi

Davlatimiz rahbarining 2019-yil 21-oktabrda imzolagan “Oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi farmoni tarixiy hodisa boʻldi desak, yangilishmagan boʻlamiz. Chunki mazkur Farmon asosida uzoq yillar yigʻilib qolgan muammolar yechimini topyapti, har yili oktabr oyida mutaxassislar tomonidan kuyunchaklik bilan aytilib, soʻngra qogʻozlarda qolib ketgan takliflar, tavsiyalarning hukumat darajasida eʼtiborga olinishi oʻchib borayotgan umid uchqunlarini yana yondirdi. Oʻtgan ikki yil mobaynida ona tilimizga oid 2 ta Prezident farmoni, Vazirlar Mahkamasining 10 dan ortiq qarori eʼlon qilindi. Prezidentimiz tomonidan oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeyini oshirish boʻyicha qator vazifalarning qoʻyilishi tilimizga boʻlgan hurmatning yuksak namunasidir.

Sarhisob

Davlat rahbari oʻzbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 30 yilligiga bagʻishlangan tantanada soʻzlangan nutqida oʻtgan yillar mobaynida yigʻilib qolgan muammolar haqida toʻxtalib, ularni hal qilish boʻyicha qator vazifalarni qoʻydi, mazkur vazifalar 5850- (2019.21.10.) Farmonda oʻz ifodasini topdi.

Farmonda belgilangan vazifalar ijrosini taʼminlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 3-martdagi 117-qarori bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti huzurida Davlat tilida ish yuritish asoslarini oʻqitish va malaka oshirish markazi hamda 13 ta viloyatda uning hududiy boʻlinmalari tashkil etildi. Mana, koʻz ochib yumguncha bir yil vaqt oʻtibdi. Qisqa muddat boʻlsa ham, ortga nazar tashlashga, qilingan ishlarni sarhisob qilishga, kelajak rejalar xususida soʻz yuritishga harakat qildik.

117-qaror asosida Markazga quyidagi vazifalar yuklatildi:

- oʻzbek adabiy tili meʼyorlari va davlat tilida ish yuritish yoʻnalishida malaka oshirish va oʻqitish boʻyicha doimiy faoliyat koʻrsatadigan malaka oshirish va oʻquv kurslarini tashkil etish;

- davlat xizmatchilarining oʻzbek adabiy tili meʼyorlari, lotin yozuviga asoslangan oʻzbek alifbosi va imlosi, davlat tilida ish yuritish asoslari, rasmiy hujjatlar va ularni yozish boʻyicha nazariy va amaliy bilimlari, koʻnikma va mahoratlarini uzluksiz yangilab borish mexanizmlarini joriy etish;

- aholining yozma hamda ogʻzaki savodxonligini oshirish, oʻzbek adabiy tili meʼyorlari, oʻzbek tili qurilishi boʻyicha amaliy bilimlari, koʻnikma va mahoratlarini uzluksiz yangilab borish mexanizmlarini joriy etish;

- davlat xizmatchilari hamda aholini oʻzbek adabiy tili meʼyorlari va davlat tilida ish yuritish boʻyicha oʻqitish va ularning malakasini oshirishni yoʻlga qoʻyish hamda zamonaviy oʻquv-metodik, axborot-maʼlumotlar bazasini yaratish;

- oʻzbek adabiy tili meʼyorlari va davlat tilida ish yuritish boʻyicha taʼlim dasturlarining uzluksizligi va izchilligini taʼminlashni inobatga olgan holda davlat xizmatchilari va aholini oʻqitish va malakasini oshirishning oʻquv dasturlarini ishlab chiqish;

oshirish istagini bildirganlar yo'q"

xatlar Markazga rus tilida kelmoqda

– davlat xizmatchilari va aholining nutq madaniyati va notiqlik mahoratini oshirish.

Mazkur vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida markazda 2 xil o'quv kurslari tashkil qilindi:

1. Davlat tashkilotlari xodimlari uchun.

2. Keng aholi qatlami uchun.

O'quv kurslari davlat tashkilotlari xodimlari uchun pullik-shartnoma asosida, aholi uchun bepul tashkil qilinishi belgilab qo'yilgan.

2020-yilda pandemiya sabab markaz va uning hududiy bo'limlarida o'quv mashg'ulotlari sentabr oyidan boshlandi. Shu davr mobaynida 102 ta guruh tashkil etilib, 2126 nafar tinglovchi o'qitildi va ularga sertifikatlar topshirildi. Viloyatlar kesimida Qoraqalpog'iston Respublikasi 176, Andijon 94, Buxoro 103, Sirdaryo 176, Jizzax 107, Navoiy 152, Namangan 103, Samarqand 137, Surxondaryo 161, Qashqadaryo 100, Xorazm 84, Farg'ona 141, Toshkent shahri bo'yicha 592 nafarni tashkil etadi.

Til ravnaqi millat kelajagi ekanligini tushunib yetgan aksar rahbarlar bu masalaga alohida e'tibor bilan qarayotgani quvonarli hol, albatta. Ba'zi rahbarlar tashkilotning o'zida guruh shakllantirib, ko'chma o'quv kurslarini tashkil qilmoqda. Masalan, Bandlik va mehnat munosabatlari, Maktabgacha ta'lim vazirliklari, Agrobank, "O'ZTEMIRYO'LTA'MIR" unitar korxonlari faoliyatini alohida ta'kidlab o'tishni xohlardik.

Aholining yozma va og'zaki savodxonligini oshirish, o'zbek adabiy tili me'yorlari bo'yicha amaliy bilimlari, ko'nikma va mahoratini tizimli asosda oshirib borish bo'yicha markazda 1 ta guruh shakllantirilib, 28 nafar tinglovchi o'qitildi. Hozir bu masala yuzasidan Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi bilan hamkorlikda mahallalarda targ'ibot ishlari olib borilmoqda.

O'tgan yilning noyabr oyidan o'zbek tilini o'rganishga qiziqqan chet elliklar uchun "Qiziqarli o'zbek tili" kurslari tashkil etildi. Kurslar xorijlik o'zbek tilini o'rganuvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, AQSH, Turkiya, Fransiya, Italiya, Janubiy Afrika Respublikasi, Koreya, Yaponiya, Rossiya, Turkmaniston kabi davlatlardan o'zbek tilini o'rganish istagidagi tinglovchilar auditoriyasidan iborat. Pandemiya sababli darslar masofaviy shaklda "O'zbekona" darsligi va dasturi asosida olib borildi va 3 oy davom etgan kurslarda 70 dan ortiq tinglovchi ishtirok etdi. Jami 5 ta guruhning 3 tasi boshlang'ich va 2 tasi o'rta darajada bo'lib, turkiyalik ustozlar va tadqiqotchilar uchun alohida, afg'onistonlik talabalar va ustozlar uchun ularning talabidan kelib chiqqan holda alohida kurslar yo'lga qo'yildi. Har bir dars o'qib tushinish, tinglab tushunish, yozish, gapirish va madaniyat aspektlari bo'yicha olib borildi. Har yakshanba kungi madaniyat darslari tinglovchilarda katta qiziqish uyg'otdi. Kurs oxirida xalqaro talab asosida tinglovchilardan imtihon olindi va daraja sertifikatlari taqdim etildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 592-qarori (2020.28.09.) asosida fuqaroligi bo'lmagan shaxslar uchun davlat tilini bilish darajasini aniqlash va sertifikat berish tizimi joriy qilindi. Mazkur qaror asosida "O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilishda davlat tilini bilish darajasini aniqlash tartibi to'g'risida Nizom" tasdiqlandi. Nizomda davlat tili bo'yicha sinov imtihonini tashkil etish, davlat tilini bilish bo'yicha sertifikat berish tartibi hamda davlat tilini bilishga qo'yiladigan minimal talablar belgilab berildi. Ushbu vazifa ijrosi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markaziga yuklatildi.

Markazning tegishli buyrug'i asosida imtihon o'tkazish komissiyasi tuzildi, yuqoridagi talablar asosida sinov imtihoni (test, yozma, og'zaki) uchun savol va topshiriqlar majmuyi ishlab chiqildi. Sinov imtihoni test, og'zaki, yozma shakllarda o'tkazilishi belgilab qo'yilgan.

Hozirgi kungacha 930 nafar fuqaroligi yo'q shaxslar daraja sertifikatini olish uchun Markazga murojaat qildilar. Ulardan 847 nafari imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirib, davlat namunasidagi sertifikatga ega bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida 2021-yil 1-apreldan boshlab rahbar kadrlarning davlat tilida rasmiy ish yuritish darajasini aniqlash hamda mas'ul lavozimlarga tayinlanadigan shaxslar uchun davlat tilini bilish bo'yicha daraja sertifikatlari joriy etilishi belgilab qo'yildi. Bu esa, o'z-o'zidan ona tilimizning davlat tili sifatidagi nufuzi oshishiga, o'zbek tilini o'rganuvchilar auditoriyasining kengayishiga olib keladi. Mazkur imtihonlar Markaz dasturi asosida amalga oshirilishi, test savollarining markaz xodimlari tomonidan shakllantirilishi ham oldimida turgan vazifalarni sifatli bajarish mas'uliyatini yanada oshiradi. Shu bilan birga, mazkur Farmonning 4-bandida "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazida o'zbek adabiy tili me'yorlari va davlat tilida ish yuritish bo'yicha qisqa muddatli (1-2 oygacha) o'quv kurslari muntazam ravishda tashkil etiladi" deb belgilab qo'yildi.

Bundan tashqari, ushbu Farmon nazorat rejasining 14-bandida teleradiokanallar suxandon-boshlovchilarini o'zbek adabiy tilidagi nutq madaniyatini oshiruvchi qayta tayyorlov kurslarida o'qitish tizimini joriy etish va qamrovini oshirib borish vazifasi ham Markaz zimmasiga yuklandi. Hozirgi kunda mazkur o'quv kursining o'quv-me'yoriy hujjatlari tayyorlandi, o'quv kurslari apreldan o'z faoliyatini boshlaydi.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 10-fevraldagi "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga bosqichma-bosqich to'liq o'tishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 61-qarorida ham Markazga alohida vazifalar yuklandi. Jumladan, mazkur qaror bilan tasdiqlangan Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga bosqichma-bosqich to'liq o'tishni ta'minlash bo'yicha "yo'l xaritasi"ning 7-bandida "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi hamda uning hududiy bo'limlarida lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi, imlo qoidalari va davlat tilida ish yuritishni o'rganish bo'yicha o'quv kurslarini tashkil etish" topshirig'i qo'yilgan.

Markaz tashabbusi bilan 1-martdan o'zga millat vakillari hamda o'zbek tilini o'rganuvchilar uchun "O'zbek tili" kursi yo'lga qo'yildi. Hozir vazirlik, idoralar, tashkilotlardan tavsiya qilingan nomzodlar ro'yxati asosida 4 ta guruh shakllantirildi.

Shu bilan birga, mamlakatda til siyosati bo'yicha olib borilayotgan ishlar yuzasidan 30 dan ortiq tashkilotlarda seminar, davra subhatlari tashkil etildi.

Markaz o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni to'la-to'kis, sifatli ado etishida ba'zi bir muammo, qiyinchiliklar ham yuzaga kelmoqda. **Birinchi**dan, ayrim rahbarlarning davlatimiz rahbari tomonidan til sohasida olib borilayotgan siyosatni to'la tushunib yetmasligi. Buning oqibatida malaka oshirish jarayoniga o'sha tashkilotdan xodimlarning qatnashmasligi, o'quv kursiga bepisand qarash holatlari kuzatilmoqda. Ba'zi tashkilot rahbarlari esa "bizda malaka oshirish istagini bildirganlar yo'q" mazmunidagi xatlarni rus tilida jo'natishini qanday izohlash mumkin?

Zero, davlatimiz rahbari o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 30 yilligiga bag'ishlangan tantanada so'zlagan ma'ruzasida barcha vatandoshlarimizga qarata shunday murojaat qilgan edi: "Muxtasar aytganda, har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz,

shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz lozim. Bu olijanob harakatni barchamiz o'zimizdan, o'z oilamiz va jamoamizdan boshlashimiz, ona tilimizga, urf-odat va qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga mehrimizni amaliy faoliyatda namoyon etishimiz kerak".

Hali uyg'onmagan rahbarlarni uyg'otish, ularda ham ona tilimizga mehr hissini shakllantirish orqaligina muammo o'z yechimini topishi mumkin va bunga umid qilib qolamiz.

Ikkinchidan, Vazirlar Mahkamasining 117-qarori 17-bandida "Toshkent shahar hokimligi O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi bilan birgalikda bir oy muddatda Markazni Toshkent shahrida bo'sh turgan va foydalanilmayotgan binoga tekin foydalanish huquqi asosida joylashtirsin" deb belgilab qo'yilgan. Afsuski, bu masala hamon yechimini topgani yo'q.

Uchinchidan, markaz Ustavi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan davlat muassasasi sifatida tasdiqlanib, davlat xizmatlari ro'yxatidan o'tkazilgan, lekin Moliya vazirligi mutaxassislari tomonidan "qarorda aniq yozilmagan" degan vaj-korsonlar oqibatida budgetdan moliyalashtirilmaydigan, o'z mablag'lari hisobiga faoliyat ko'rsatadigan tashkilotga aylandik. O'quv kurslarini tamomlagan tinglovchilar shartnoma mablag'larining vaqtida to'lanmasligi, ba'zi tashkilotlarning turli bahonalar bilan to'lashdan bosh tortishi oqibatida markaz xodimlariga oylik maoshlari o'z vaqtida to'lanishida muammolar kelib chiqmoqda.

Kelajak rejalar.

Tilning mavqeyi va saqlanib qolinishi uchun xalqaro talab va standartlarga moslashtirish juda muhim. O'zbek tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishning kundan-kunga oshib borishi o'zbek tili bilimini xalqaro standartlar asosida baholash ehtiyojini ham keltirib chiqarmoqda. O'zbek tili bilimini baholash tizimi va sertifikatini yaratish bugungi til siyosatining eng muhim asoslaridandir. Shuni hisobga olib, Markaz mutaxassislari milliy baholash tizimini yaratish ustida tizimli ishlarni amalga oshirmoqda.

Har bir davlat dunyo miqyosida o'z elchixonalari yordamida tili va madaniyatini targ'ib qilishga harakat qiladi. Buning uchun maxsus markaz, institutlar tashkil etilgan. Masalan, Janubiy Koreyaning "KOICA", Yaponiyaning "JICA", Xitoyning "Konfutsiy" instituti, Rossiyaning "Rossotrudnichestvo" ayni shu maqsadda tashkil qilingan bo'lib, hozir butun dunyoga mashhur. Biz ham tilimiz, boy madaniyatimizni dunyoga targ'ib qilmoqchi bo'lsak, shu tajribani qo'llashimiz kerak. Ehtimol, shunda bo'lim Markaz qoshida tashkil qilinlar, bu borada taklif tayyorlayapmiz. Nomi "O'zbek tili va madaniyati" deyilar yoki boshqacha nom bo'lishi mumkin. Asosiysi, uni tashkil qilish, faoliyatini boshlash, keyinchalik xorijdagi elchixonalarimiz orqali faoliyat doirasini kengaytirish.

Qo'shni davlatlardagi o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilarining kasbiy malakalarini oshirish, ularga uslubiy yordam ko'rsatish ham kechiktirib bo'lmaydigan masalalardan hisoblanadi. O'tgan yildan boshlab qozog'istonlik hamkasblarimizning onlayn malaka oshirish amaliyotini yo'lga qo'ydik. Bunday tadbirlarni boshqa qo'shnilarimiz bilan ham amalga oshirish rejalashtirilmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, Markaz ona tilimiz rivoji, yuksalishi yo'lida bor imkoniyatini ishga solgan holda faoliyat olib bormoqda. Prezidentimiz aytganidek: "Ona tilimiz – milliy ma'naviyatimizning bitmas-tuganmas bulug'idir. Shunday ekan, unga munosib hurmat va ehtirom ko'rsatish barchamizning nafaqat vazifamiz, balki muqaddas insoniy burchimizdir".

Inomjon AZIMOV,
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO'TAU huzuridagi Davlat tilida ish
yuritish asoslarini o'qitish va malaka
oshirish markazi direktori


Sinab ko'ring

10 SHAXMATCHI QATNASHGAN TURNIRDA NECHA PARTIYA O'YNALADI?

Ko'plab hayotiy masalalarni yechishning bir necha xil usullari mavjud. Turmushda uchraydigan bunday masalalarni kombinatorika yordamida yechish ancha maqbul usul hisoblanadi. Kombinatorika — matematikaning keng tatbiqlariga ega bo'limlaridan biri. Hozirgi kunda kombinatorikaga oid ma'lumotlar inson faoliyatining turli sohalarida qo'llanilmoqda. Umumta'lim maktablarida kombinatorika elementlari 6-sinfidan o'quv dasturlariga kiritilgan.

1-masala. 1, 2, 3 raqamlari yordamida nechta ikki xonali son tuzish mumkin?


Yechish: Javoblarning birortasini qoldirib ketmaslik yoki takroriy yozib qo'ymaslik uchun "variantlar daraxti"dan foydalanamiz.



Jami 9 ta kombinatsiya hosil bo'ldi.
Javob: 9 ta.

2-masala. 1, 2, 3 raqamlaridan ularni takrorlamay, jami nechta turli ikki xonali son tuzish mumkin?

Yechish: Variantlar daraxtini tuzamiz.



Barcha kombinatsiyalar soni 6 ta.
Javob: 6 ta.

Har ikkala masala shartiga e'tibor beradigan bo'lsak, deyarli bir xilga o'xshaydi. Lekin javob 2 xil: 1-masalada kombinatsiyalar soni 9 ta, 2-masalada esa 6 ta. 2-masaladagi "ularni takrorlamay", "turli" deb qo'yilgan shart bu masalaning mohiyatini anglatadi. Shunday masalalarni yechish jarayonida o'quvchilar biroz chalg'iydi. Xatolikka yo'l qo'ymaslik uchun esa "variantlar daraxti"ni to'g'ri tuzib olish muhimdir.

3-masala. 1, 2, 3 raqamlari yordamida hammasi bo'lib, 1) raqamlar takrorlanmasa, 2) raqamlar takrorlanishi mumkin bo'lsa, nechta 3 xonali son tuzish mumkin.


Yechish: 1) Raqamlar takrorlanmasa 2-masalada ko'rib chiqqanimizdek, kombinatsiyalar soni 6 ta bo'ladi, ya'ni 1-raqamni tanlash imkoniyati 3 ta bo'ladi. 2-raqam qolgan 2 ta raqamning ixtiyoriy bittasi bo'lishi mumkin, ya'ni 2-raqamni tanlash imkoniyatlarimiz ikkita, 3-raqamni tanlash imkoniyatimiz bitta qoladi. Demak, raqamlar takrorlanmasa, jami 3 xonali sonlar $3 \cdot 2 \cdot 1 = 6$ ta bo'ladi.
Javob: 6 ta.

2) Agar raqamlar takrorlanadigan bo'lsa, 3 xonali sonning 1-, 2-, 3-xonalariga yoziladigan raqamni tanlash imkoniyatlari 3 tadan bo'ladi, chunki berilgan raqamlar soni 3 ta. 3 xonali sonlar soni $3 \cdot 3 \cdot 3 = 33 = 27$ ta bo'ladi.

Javob: 27 ta.

Shuni ta'kidlash joizki, kombinatorika matematikaning eng qiziqarli bo'limlaridan biridir. Kombinatorik masalalarni yechish jarayonida o'quvchi zerikib qolishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Bir xillik o'quvchini zerikdirib qo'yadi va darsga befarq bo'lishiga olib keladi. Bunday muammoga duch kelmaslik uchun dars jarayonida turli xil metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

4-masala. Bir bola yozayotgan she'rining 1-qatorida "A'lo o'qisang yaxshi-da!" deyilgan. Bola 1-qatoridagi so'zlarning o'rnini almashtirib, keyingi qatorlarni hosil qilmoqchi. Bu she'rda nechta qator bo'ladi? Qani shu "she'r"ni yozib ko'ring-chi.



Yechish: Bu masalani yechish jarayonida 3 ta qatorga 3 xil vazifa berish mumkin. Bunda 3 ta qatoridagi o'quvchilarga 3 ta so'zni bo'lib berib, shu so'z bilan boshlanuvchi qatorlarni tuzish vazifasini topshiramiz.

1-qator "A'lo" so'zi bilan boshlansin.
2-qator "o'qisang" so'zi bilan boshlansin.

3-qator "yaxshi-da" so'zi bilan boshlansin.

Bu vazifani bajarish jarayonida 1-qatoridagi o'quvchilar:

1. A'lo o'qisang yaxshi-da!
2. A'lo yaxshi-da o'qisang!

- 2-qatoridagi o'quvchilar:
1. O'qisang a'lo yaxshi-da!
2. O'qisang yaxshi-da a'lo!

- 3-qatoridagi o'quvchilar:
1. Yaxshi-da a'lo o'qisang!
2. Yaxshi-da o'qisang a'lo!

misralarini tuza olishadi.
Ko'rib turganimizdek, har biri faqat 2 tadan qator tuza oladi. Demak, jami kombinatsiyalar soni 6 ta.

Javob: 6 ta.

Kombinatorik masalalarni o'quvchilarga tushuntirishda noaniqlikka yo'l qo'ymaslik lozim. O'quvchi har bir kombinatsiyaning qanday hosil bo'lganligini tushunib olishi lozim.



5-masala. Nechta 3 xonali sonda faqatgina 6 raqami bor?

Yechish: 6 raqami 1-o'rinda turgan bo'lsin. $6 \cdot 6 \cdot 6$ 2-o'rinda 0, 1, 2, 3, 4, 5, 7, 8, 9 sonlaridan albatta bittasi turadi. Bunda kombinatsiyalar soni 9 ta. 3-o'rinda ham xuddi shunday 0, 1, 2, 3, 4, 5, 7, 8, 9 sonlaridan birortasi turadi, jami 9 ta kombinatsiya. Demak, 1-o'rinda 6 raqami tursa, 2-va 3-o'rindarni $9 \cdot 9 = 81$ usulda to'ldiramiz. Agar 2-o'rinda 6 raqami tursa, u holda 1-o'rinda 0 va 6 raqamlari qatnasha olmaydi. 1, 2, 3, 4, 5, 7, 8, 9 raqamlaridan biri qatnashadi. 3-o'rinni 9 ta raqam bilan to'ldiramiz. Demak, 2-o'rinda 6 raqami turganda $8 \cdot 9 = 72$ usulda to'ldiramiz. Agar 3-o'rind-


da 6 raqami tursa, 1-o'rinni 8 ta raqam, 2-o'rinni 9 ta raqam bilan jami $8 \cdot 9 = 72$ usulda to'ldiramiz. Hosil bo'lgan usullar ni qo'shamiz: $81 + 72 + 72 = 225$.

Javob: 225 ta.


Kombinatorik masalalarni yechish jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkoniyati ancha keng. Masalan, "Klaster" usulini. Quyidagi masalani qaraylik:

6-masala. 10 nafar o'rtiq o'zaro shaxmat turniri o'tkazishmoqchi. Bunda har bir bola qolgan har bir bola bilan bir partiya o'ynaydi. Bu turnirda jami nechta partiya o'ynaladi?

Yechish: Avvalo, 10 ta ishtirokchini raqamlab olamiz. 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10



1-bola qolgan 9 ta bola bilan 1 martadan o'ynaydi, bu holda 9 ta kombinatsiya, 2-bola o'ynagan kombinatsiyalar soni 8 ta, 3-bola o'ynagan kombinatsiyalar soni 7 ta, 4-bola o'ynagan kombinatsiyalar soni 6 ta, 5-bola hosil qilgan kombinatsiyalar soni 5 ta, 6-bola hosil qilgan kombinatsiyalar soni 4 ta, 7-bola o'ynagan kombinatsiyalar soni 3 ta, 8-bola o'ynagan kombinatsiyalar soni 2 ta, 9-bola o'ynagan kombinatsiyalar soni 1 ta bo'ladi. Shu kombinatsiyalarga mos klasterlar tuzamiz.



Klasterlar xuddi shunday tuziladi. Har bir klasterda oldingisiga nisbatan bittadan ishtirokchi kamayib boradi. $9 + 8 + 7 + 6 + 5 + 4 + 3 + 2 + 1 = 45$

Javob: 45 partiya o'ynaladi.

Bunday klasterlarni tuzish o'quvchilarning darsga qiziqishini oshirishda katta rol o'ynaydi.

Saylov – 2021

Saylovchilar ro'yxati – saylovning muhim hujjati

Saylovchilar ro'yxatini tuzishning huquqiy asoslari



(Davomi. Boshi o'tgan sonda.)

Bolgariya Saylov kodeksiga muvofiq saylovchi faqat bitta saylovchilar ro'yxatiga kiritilishi mumkin, shu bilan birga qonun hujjatlarida bir vaqtning o'zida doimiy yashash joyidan farq qiluvchi saylov uchastkasida ovoz bera oladigan besh toifadagi saylovchilar belgilangan. Bular, xususan, har qanday saylov uchastkasida ovoz bera oladigan o'quvchilar, talabalar va nogironlar hamda o'zlarining xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan ular tayinlangan saylov uchastkalarida ovoz beradigan uchastka saylov komissiyalari a'zolari, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlaridan iborat.

Ayrim mamlakatlarda saylovga kelmaganlik uchun ma'muriy javobgarlik nazarda tutilganligini hisobga olsak, bizning milliy saylov qonunchiligimiz demokratik prinsiplarga naqadar mos kelishining guvohi bo'lamiz.

Yevropa-Osiyo mintaqasining 30 davlatining aksariyat qismida saylovchilarni ro'yxatdan o'tkazish nafaol hisoblanadi – saylovchilarni ro'yxatga olish davlat, saylov komissiyasi yoki hokimiyat tomonidan amalga oshiriladi. Kipr va Afg'onistonda esa ro'yxatdan o'tish deklarativ hisoblanadi (saylovchi tegishli ro'yxatga olish organi yoki saylov komissiyasiga o'z saylovchisi sifatida ro'yxatdan o'tish uchun belgilangan shakldagi arizani taqdim etishi shart).

Kipr qonunchiligi saylovchi sifatida ro'yxatdan o'tmagan yoki familiyasi, ismi, yashash joyining manzili o'zgarigan bo'yicha o'z vaqtida aniqlik kiritmagan saylovchiga nisbatan ma'muriy va jinoyi javobgarlik ko'zda tutilgan.

Saylovchi qonun tomonidan unga yuklatilgan majburiyatni bajarmagan taqdirda, shu jumladan, yashash joyining o'zgarigani to'g'risida o'z vaqtida xabar bermagan uchun saylovchiga nisbatan javobgarlik belgilanadi: 340 yevro miqdorida jarima, olti oygacha ozodlikdan mahrum qilish, belgilangan jazo turlarini bir vaqtning o'zida qo'llash (saylovchi sifatida ro'yxatdan o'tishni so'rab ariza topshirilmaganligi uchun), 85 yevro miq-

dorida jarima, bir oygacha ozodlikdan mahrum qilish, ushbu jazo turlarini bir vaqtning o'zida qo'llash (yashash joyining o'zgarigani haqida ma'lumot taqdim qilmagan uchun) jazo choralarini qo'llaniladi.

Saylovchilar ro'yxatini tuzishda milliy tajriba va amaliyot

Respublikamizda saylovchilar ro'yxatini tuzishda quyidagi muhim shartlar bajarilishi zarur: saylovchi O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lishi, saylov kunigacha yoki saylov kuni 18 yoshga to'lgan bo'lishi, ushbu saylov uchastkasi hududida doimiy yoki vaqtincha yashayotgan bo'lishi kerak.

Bir so'z bilan aytganda, uchastka saylov komissiyasi o'z saylov uchastkasi hududidagi xonadonlar, ko'p qavatli uylarda doimiy yoki vaqtincha yashayotgan saylov huquqiga ega bo'lgan fuqarolarni saylovchilar ro'yxatiga kiritadi.

Qonunga muvofiq saylovchilar ro'yxati tuzib bo'lingach, saylovga o'n besh kun qolganida saylov uchastkasida saylovchilarga tanishtirish uchun hammaga ko'rinarli joyga joylashtiriladi.

Saylovchilar ro'yxatini tuzish uchun ro'yxat namunalari O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan belgilanadi. Saylovchilar ro'yxati ikki xil shaklda tuziladi, saylovchilarga tanishtirish va ularning ovoz berishini tashkil etish uchun foydalaniladi.

Har ikkala shakldagi ro'yxatda saylovchilar haqidagi ma'lumotlar bir xil tartibda, bir xil raqamlangan holda tuziladi. Saylovchilar ro'yxati bosh sahifa, ichki varaqlar va so'nggi varaqdan iborat bo'ladi.

Bosh sahifada o'tkazilayotgan saylov nomi, saylov uchastkasining tartib raqami, joylashgan manzili hamda saylovchilar ro'yxati ko'rsatilgan bo'ladi. Ichki varaqlarida esa saylovchilarning ro'yxati tartib bilan berilgan bo'ladi. So'nggi varag'ida saylovchilar ro'yxatining yakunlovchi qismi hamda uchastka

saylov komissiyasi raisi va kotibining familiyasi, ismi, otasining ismi va imzolari hamda imzo qo'yilgan sana ko'rsatilgan bo'ladi.

Saylovchilar ro'yxati bir necha varaqdan iborat bo'lgani sababli uning barcha varaqlari yagona tartibda raqamlanadi.

Saylovchining familiyasi, ismi va otasining ismi haqidagi ma'lumotlar uning pasporti yoki ID kartasi asosida to'liq yozilishi shart.

Ma'lumki, fuqarolar yangi yashash joyiga kelgan kundan e'tiboran o'n besh kun ichida ichki ishlar organlarining migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'linmalari, Davlat xizmatlari markazlari, O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali doimiy yoki vaqtincha ro'yxatdan o'tadilar. Uchastka saylov komissiyasi saylovchilar ro'yxatini tuzish davomida ushbu holatlarni ham hisobga olishi zarur.

Saylovchining bir hududdan boshqa hududga yashash uchun ko'chib o'tishi uning bir saylovchilar ro'yxatidan chiqarilib, ikkinchi saylovchilar ro'yxatiga kiritilishiga sabab bo'ladi.

Saylov kampaniyasi davrida saylovchi yangi ko'chib kelgan hududidagi uchastka saylov komissiyasiga albatta o'sha kunning o'zida murojaat qilishi lozim bo'ladi. Bu holat saylovchining elektoral madaniyatini ko'rsatuvchi mezon hisoblanadi.

Agarda saylovchining yashash joyi o'zgarsa, saylovchi ko'chib kelgan yoki vaqtincha bo'lib turgan joydagi uchastka saylov komissiyasiga o'z vaqtida xabar berishi zarur. Agar bu haqda tegishli uchastka saylov komissiyasi ma'lumotga ega bo'lmasa, saylov kuniga qisqa vaqt qolganida yoki saylov kuni saylovchi ovoz berishga kelganda u saylovchilar ro'yxatiga kiritilmay qolganligi sababli ovoz bera olmay qolishi mumkin.

Basharti shunday holatlar yuzaga kelganda, saylovchining saylov huquqini ta'minlash nuqtayi nazaridan Saylov kodeksiga alohida norma kiritilgan, shunga muvofiq uchastka saylov komissiyasi saylovchining shaxsini tasdiqlovchi hujjati asosida saylovchining qaysi saylov uchastkasi bo'yicha ro'yxatga kiritilganligini saylovchilarning yagona elektron ro'yxatidan izlab topadi va muddatidan oldin ovoz bergan yoki bermaganligini aniqlashtiradi. Muddatidan oldin ovoz berish huquqidan foydalanmagan saylovchilargina, haqiqatan, vaqtincha yashash joyidagi saylov uchastkasi bo'yicha saylovchilar ro'yxati ilovasiga kiritilishi mumkin.

Ko'rib turganimizdek, bu jarayon ovoz berish kuni saylov komissiyalariga saylovchining doimiy yashash joyini aniqlash, uning avval qaysi saylov uchastkasida bo'lganligini boshqa hududdagi saylov komissiyalari bilan bog'langan holda aniqlik kiritish, avvalgi saylovchilar ro'yxatidan chiqarish va yangi saylovchilar ro'yxati ilovasiga kiritish bilan bog'liq masalalarni tezkorlik bilan hal etishni taqozo qiladi.

Agarda bunday holatlar amaliyotda ko'p takrorlansa, saylovchilar ro'yxati-

tiga bo'lgan ishonch susayishi va "Bir saylovchi — bir ovoz" qoidasining buzilishga olib keluvchi xatolikka sababchi bo'lishi mumkin. Amaliyotda shunday holatlarning oldini olish uchun mamlakatimizda saylov kampaniyasida saylovchilarning Yagona elektron ro'yxatidan foydalanish yo'lga qo'yilgan. Shuning uchun saylovchi ham, saylov tashkilotchilari ham bunday holatning oldini olish uchun yakdillik bilan ish tashkil etishi zarur.

Shu bilan birga, saylov kampaniyasi davrida har bir saylovchi o'zining qaysi saylovchilar ro'yxatiga kiritilganini aniqlashi, uni uchastka saylov komissiyasidan so'rashi va saylovchilar ro'yxati bilan tanishib, zarur hollarda unga tegishli o'zgartirish kiritilishi bo'yicha saylov komissiyasiga murojaat qilishi ko'zlangan maqsadga erishishda alohida ahamiyatga ega. Amaliyotda ushbu jarayon saylovga kamida besh kun qolganiga qadar bajarilsa, saylov kampaniyasida saylovchining elektoral huquqini amalga oshirishga har tomonlama yordam beradi.

Saylovchilarga o'z saylov uchastkasini topishda qulaylik yaratish maqsadida bir necha qulay vositalar ishlab chiqilgan. Buning uchun Markaziy saylov komissiyasining elections.uz veb-saytida tashkil etilgan "O'zingizni saylovchilar ro'yxatidan aniqlang", "O'z saylov uchastkangizni toping" nomli sahifalar orqali murojaat qilinishi fuqaroning o'z vaqtida saylovchilar ro'yxatiga kiritilishiga yordam beradi.

Bu haqda so'z yuritganda O'zbekiston Respublikasida 2019-yil 22-dekabrda o'tkazilgan saylovlar yakuni bo'yicha YXHT DIHBNing yakuniy xulosasidan quyidagi fikrlarini keltirish o'rindir: "Saylovchilarni ro'yxatga olish passiv(nofaol) bo'lib, saylovchilar o'zlarining doimiy yoki vaqtinchalik ro'yxatdan o'tgan yashash joylaridagi saylovchilar ro'yxatiga kiritilganlar. Bu, saylovlarda ilk bor markazlashgan Saylovchilarning yagona elektron ro'yxatidan (SYER) foydalanildi. U qayta-qayta ovoz berishni kamaytirish va saylovchilar qamrovini ancha kengaytirishni oldiga maqsad qilib qo'yan".

Ushbu misollar mamlakatimizda saylovchilarni ro'yxatga olish amaliyoti xalqaro qoidalar bilan hamohang ravishda takomillashtirib borilayotganini ko'rsatadi. Demak, saylovchilar ro'yxatini ochiq-oshkora tuzish bo'yicha amaldagi qonun hujjatlarida mustahkamlab qo'yilgan tartib amaliyotda fuqarolar xohish-irodasi to'liq ifodalanihini ta'minlabgina qolmay, balki mamlakatimizda har bir fuqaroning ovozi muhim ahamiyatga ega ekanidan dalolat beradi.

Zero, joriy yilda o'tkaziladigan saylov kampaniyasi Yangi O'zbekiston sharoitida saylovchilarning, barcha fuqarolarimizning siyosiy va huquqiy madaniyati, dunyoqarashi, fuqarolik pozitsiyasi mustahkamlanib borayotganini yana bir bor namoyon etadigan muhim siyosiy voqelikdir.

Bahodirjon YUNUSOV,
O'zbekiston Respublikasi
Markaziy saylov komissiyasi a'zosi

Hozirgi vaqtda ko'pchilik mamlakatlarda robototexnikadan koronavirus va boshqa kasalliklarda himoya vositalari sifatida foydalanilmoqda.

Yangi O'zbekistonga — yangi yuqori texnologiya fizikani o'qitishda robototexnika vositalaridan foydalanishning hozirgi ahvoli va istiqbollari

Mamlakatimizda jahon miqyosida tan olingan misli ko'rilmagan o'zgarishlar ro'y bermoqda. Ta'lim tizimiga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekistonda 2018-yil — "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash", 2020-yil — "Ilim, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish" yili deb e'lon qilinishi ta'lim-tarbiya sohasiga qaratilayotgan katta e'tiborning yaqqol dalilidir. Yurtboshimiz o'zining keyingi chiqishlarida yuqori texnologiya bilan qurollangan mutaxassislar tayyorlashda orqada qolayotganimizni bir necha bor ta'kidledi. Ushbu maqolada "Mamlakatimizda yuqori texnologiyaga ega bo'lgan mutaxassislar tayyorlash uchun nima qilishimiz kerak?" degan savolga qisman javob berishga harakat qilamiz.

Muallif robototexnika mavzusi bo'yicha "Ma'rifat" (2016-yil, 16-noyabr) gazetasida, "Fizikani o'qitishda eng keyingi zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish (Samarqand, 2019-y.)" o'quv qo'llanmasida ma'lumot bergan. Robototexnika mavzusini o'qituvchilar, o'quvchilar qiziqish bilan qabul qilmoqda. Hozir robototexnika bo'yicha internet saytlarida 8 milliondan ortiq o'quv va uslubiy qo'llanmalar, dissertatsiyalar hamda turli ko'rinishdagi ma'lumotlar mavjud. Jumladan, davlatimizda 71 mingdan ziyod. Ma'lumki, shu o'quv yilidan boshlab umumta'lim maktablarining 10-sinf o'quvchilariga robototexnika darslari o'qitila boshlandi. Ammo o'qituvchilar va o'quvchilar uchun robototexnika bo'yicha o'zbek tilida darslik, o'quv qo'llanma yo'q. Bu muhim kamchiliklardan biri. Maqolada asosan robotlarning ta'lim tizimida qo'llanilishi haqida so'z yuritiladi.



«INNOWEEK – 2019» innovatsion g'oyalar haftaligi. Toshkent 2019-y.

Hozirgi vaqtda robotning bir necha ta'rif mavjud. Robot – dasturlashgan avtomatik ishlaydigan mashina, elektron-mexanik qurilma bo'lib, uning ishlatish tashqi muhit o'zgarishiga asoslanadi. Robot – istalgan qurilma bo'lib, unga ko'rsatgan ta'sir asosida bir vaqtda 3 ta sharti bajaradi:

- 1) SENS – atrof-muhitni sensorlar orqali qabul qilish. Sensorlar sifatida mikrofon, kamera (elektromagnit to'lqinlarning barcha sohalari), turli xil elektromexanik sensorlar va boshqalar;
- 2) IHINK – atrof-muhitni tushunadi va boshqarish modelini quradi, unga berilgan topshiriqlarni bajaradi.
- 3) AST – fizik dunyoga u yoki bu yo'l bilan ta'sir ko'rsatadi.

Robotning harakati mikroprosessor bilan boshqariladi. Robot – bu "mexanik" odamdir. Xo'sh, robototexnika nima? Robototexnika bu integrativ fan bo'lib, umumlashtirilgan, avtomatlashtirilgan sistemalar bilan shug'ullanadi. Uning asosida elektronika, elektrotexnika, mexanika, fizika, matematika, informatika va dasturlash fanlaridan olingan ilmiy bilimlar yotadi.

Robototexnika yuqori texnologiyali mutaxassislar tayyorlashda alohida o'rin tutadi. E.I.Yurevich o'zining "Robototexnika asoslari" nomli kitobida (Sankt-Peterburg, 2020) shunday yozadi: "Zamonaviy robototexnikaga uzunligi o'n metrdan ortiq kosmik va qurilish manipulyatorlari va yerda, suvda yuradigan hamda uchadigan millimetrdan kattalikdagi mikrorobotlar kiradi. Shu sababga ko'ra zamonaviy robototexnika – butun tirik dunyo obyektlarining, shu jumladan, odamning texnik analogidir". Hozirgi vaqtda ko'pchilik mamlakatlarda robototexnikadan koronavirus va boshqa kasalliklarda himoya vositalari sifatida foydalanilmoqda.

Xalqaro robototexnika federatsiyasi ma'lumotlariga ko'ra, o'tgan yili jahon bozorida sanoat robototexnikasi o'z tarixida rekord natijaga erishgan — 16,5 mlrd dollar bahosida 422 mingta sanoat robotini tashkil qilgan. Bunda eng katta ko'rsatkich Singapurda tegishli — har 10 ming nafar ishchi-

ga 831 ta robot to'g'ri keladi. Singapur bunday muvaffaqiyatga erishishining sababi fan va ta'limga tayanganligi hamda ishlab chiqarish yuqori texnologiyaga asoslanganligidir. Chunki davlat ta'limda haqiqiy inqilob qildi. Kreativ fikrlaydigan o'quvchilarga alohida e'tibor qaratdi va ularning shaxsiy tashabbuslarini doimo qo'llab-quvvatlab bordi. Robototexnika bozori O'zbekistonda endi ochilyapti. O'zbekiston hali bunday raqamlardan uzoq, lekin mamlakatda sanoatning kengayayotgani, xorijiy ishlab chiqaruvchilarning jalb etilayotgani hisobiga bu borada siljishlar kuzatilmoqda. Hozir asosan UzAvtoSanoat tizimida robototexnikadan foydalanilyapti, boshqa sanoat yo'nalishlarida bu borada siljish kam.

So'nggi yillarda robototexnika sohasi bo'yicha respublikamizda ko'plab ijobiy ishlar olib borilmoqda. 2019-yil 24-fevral kuni Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot robototexnikani universitetida "ROBO CODERS-2019" respublikalari final bosqichi bo'lib o'tdi. Ishlab chiqaruvchilar robototexnikani joriy qilish ishsizlikni keltirib chiqaradi, deb o'ylamasligi kerak. 2018-yili Toshkentda I Sanoatlashtirilgan robototexnika sammiti o'tkazilgan bo'lib, unda robototexnika rivojlanayotgan O'zbekiston bozori uchun yuqori texnologik yechimlarni joriy qilishning afzal usuli sifatida iqtisodiyotni rivojlantirishga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishi e'tirof etilgan edi. Yoshlarni texnologiya, ilm-fanga qiziqtirish maqsadida Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan doimiy ravishda startaplar va ilmiy g'oyalar tanlovi o'tkazilib, ularni amalga oshirish uchun vazirlik tomonidan grant mablag'i ajratilib yuritayotgan xorijiy OO'Ylar fillallari, jumladan, Turin va Inha universitetlari faoliyatining ilk davridan robototexnika fanlari o'qitila boshlandi. Xorijlik professor va o'qituvchilar talabalarga ham nazariy, ham amaliy bilim berib kelishmoqda. Yetarlicha sharoitda tarbiyalangan kadrlar ayni paytda robototexnika maktablarini ochib, bolalarga bilim bermoqda. Shu tariqa robototexnika sekin-asta ommalashib boryapti. Lekin biz hali uni real hayotda ko'rishimiz uchun katta vazifalarni amalga oshirishimiz kerak.

Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti Mexatronika markazi robototexnikaga qiziquvchi maktab o'quvchilarini

2019-yilda bepul Summer Camp o'quv kurslariga chorladi. Navoiylik o'quvchi Suhrob Haydarov to'rt tili o'rgatuvchi robot ixtiro qildi. U mazkur ixtirolari bilan xalqaro robototexnika olimpiadasida ishtirok etib, 1-o'rinni egalladi.

Fizika fani zamonaviy texnikaning ilmiy asosi hisoblanib, ta'lim jarayonida texnologik ta'limni amalga oshirish uning eng asosiy vazifalaridan biridir. Umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi fizika fani mazmuni ishlab chiqarishning muhim tarmoqlari bilan o'quvchilarni tanishtirishga imkon beradi. Bulardan eng muhimlari: texnologik jarayonlar, energiyani ishlab chiqarish va uzatish, mashinasozlik, o'lovch asboblari, avtomatika, kibernetika, transport, aloqa, harbiy texnika va hokazolari hisoblanadi.

Ko'pchilik texnologik jarayonlar fizika qonunlariga asoslanadi: metallarning elektr toki, elektromagnit maydon va issiqlik ta'sirida eritish va hokazo. Fizika darsining ko'plab amaliy mashg'ulotlarida (masalan yechish, laboratoriya ishlarini bajarish) o'quvchilar amaliy va texnikaviy hisob-kitobni bajarishadi va ular orqali texnologik ta'lim amalga oshirib boriladi. Texnologik ta'lim jarayonida o'quvchilarda ko'nikma, malaka, mustaqil fikrlash va ijodkorlik kabi xislatlar shakllana boradi. O'quvchilarda texnik ijodkorlik malakasini shakllantirish uchun fizika darsida quyidagi mavzularni tanlab olish maqsadga muvofiq.

Robototexnik ta'limni amalga oshirish fizika o'qituvchisidan bir qator ko'nikma va malakalarni egallashni talab etadi. Xuddi shuningdek, fizika o'qituvchisi texnikaviy muammo va masalalar yechimini topishda zamonaviy fan yutuqlaridan foydalana olishi lozim. O'qituvchi robototexnik ta'limni amalga oshirish uchun maktab yaqinida joylashgan sanoat yoki qishloq xo'jaligiga taalluqli korxonalarni tanlab olishi va undagi texnologik jarayonlarni chuqur va har tomonlama tahlil qila olishi zarur.

Tanlab olingan o'quv materiallari o'quv dasturiga mos va sistemaga keltirilgan bo'lishi kerak. O'quv materiallari sifatida tanlab olingan texnikaviy jarayonlar zamonaviy texnikaning eng asosiy tomonlarini o'zida aks ettirishi lozim. O'quv materiallari sifatida tanlab olingan mavzular quyidagi talablarga javob berishi zarur:

1. Texnikaviy ma'lumotlarning o'quv dasturiga mos kelishi.
 2. Zamonaviy texnikaning eng muhim va asosiy tomonlarini o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi.
 3. Tanlab olingan texnik ma'lumotlar o'quvchilarga tushunarli bo'lishi lozim.
- Fizika darslarini robototexnikaga yo'naltirib o'qitishda muhim natijalarga erishish uchun quyidagi masalalarni hal etish kerak:
- 1) o'quv muassasasida fanlarning zamonaviy talablarga javob beradigan o'quv texnomuhitini (texnik, uslubiy va didaktik materiallar bilan ta'minlangan) xonalar mavjud bo'lishi;
 - 2) o'quvchilarning texnik madaniyatga ega bo'lishi;
 - 3) o'quvchilar texnik kompetentligining shakllanganligi, ya'ni amaliy karakter-

dagi masalalarni yechishga tayyor bo'lishi. Maktab o'quvchilarining fizika fani bo'yicha texnologik tayyorgarliklarini tashkil etuvchilar: ta'lim sharti (o'quv texnomuhiti), o'quv jarayonining tashkil etuvchilari (texnik bilimlar tizimi, kompetensiya va qobiliyat), ta'lim (uslublar, muhit, shakllari, variativ amaliyot) va uning natijalari (fan bo'yicha, metafani bo'yicha va shaxsiy).

Rossiyalik A. N. Bogolyubov, D. A. Nikitin, A. P. Alekseyev, A. N. Bogatirev va boshqalarning ta'lim robototexnikasi bo'yicha qilgan metodik ishlanmalarining baholishi shuni ko'rsatdiki, fizika bo'yicha o'quv jarayonida robototexnika elementlaridan foydalanish o'quvchilar mavzuni o'zlashtirishda katta samara berar ekan.

Robototexnika bo'yicha xalqaro chempionat (IRO) — robototexnika sohasida har yili o'tkaziladigan xalqaro yoshlar musobaqasi bo'lib, unda 38 ishtirokchi mamlakattan dastlabki turlardan muvaffaqiyatli o'tgan 500 dan ortiq o'smirlar ishtirok etadi. 2018-yilning dekabr oyida Filippinning Manila shahrida Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Innovatsion ishlanmalarni joriy etish ilmiy-



Notekis harakat qonunlarini o'rganish (laboratoriya mashg'uloti)

amaliy markazi hamda IROC (International Robot Olympiad Committee) Xalqaro robototexnika olimpiadasi qo'mitasi bilan imzolangan Memorandumga ko'ra O'zbekiston IROC tarkibiga kirdi. Shundan buyon har yili respublikamizning iqtidorli yoshlari robototexnika bo'yicha xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etib kelmoqda.

Samarqand davlat universitetida yur-timiz tarixida ilk marotaba xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda ta'lim beriladigan Xalqaro ta'lim dasturlari fakulteti tashkil etildi. Ushbu fakultetda xorijiy oliy ta'lim muassasasining tajribasi va yuqori salohiyatidan foydalangan holda mexatronika va robototexnika mutaxassisligi bo'yicha bakalvriat ta'lim bosqichida «2+2» va magistratura ta'lim bosqichida «0,5+1,5» qo'shma ta'lim dasturlari yo'lga qo'yilgan.

2016-yili Samarqand shahrida vaqtincha ishsiz fuqarolarni zamonaviy kasb-hunarlariga o'qitish maqsadida Janubiy Koreyaning KOICA (Koreya Xalqaro Hamkorlik Agentligi) agentligi grantlari va KoreaTEX universiteti loyihasi asosida kasb-hunar markazi tashkil qilindi. Markaz axborot texnologiyalari, elektr va elektronika, payvandchilik, avtochilangarlik yo'nalishlarida eng so'nggi o'quv-laboratoriya jihozlari bilan ta'minlanganligi va ish beruvchi sanoat korxonalarini bilan yaqindan aloqa o'rnatilgan hamda o'quv rejalarini, o'qitish uslubiyati to'g'ri yo'lga qo'yilganligi uchun katta muaffaqiyatga erishdi. Bu markaz turli xil zamonaviy kasb-hunar mutaxassislarini robototexnika asosida tayyorlamogda va ijobiy natijalarga erishmoqda.

Samarqand shahridagi kasb-hunarga o'qitish markazida erishilgan muaffaqiyatlar KOICA tomonidan 3 yil muddatga mo'ljallangan qiymati 1 100 000 AQSH dollari miqdorida loyiha berilishiga sabab bo'ldi va loyiha doirasida mashinasozlik texnologiyasi, mashinasozlik ishlab chiqarish jihozlari va ularni avtomatlashtirish yo'nalishi tashkil etildi.

Markazning katta o'qituvchisi J. Ro'zi-murodov bergan ma'lumotga ko'ra, elektr va elektronika yo'nalishi talabalari uchun Janubiy Koreyalik ko'ngilli o'qituvchilar tomonidan mikrokontroller va dasturlanuvchi mantiqiy kontrollerlar asosida manipulyatorlar va robot avtomatlarni dasturlash bo'yicha qo'shimcha to'garaklar tashkil qilingan bo'lib, zamonaviy laboratoriya jamlanmalari bilan ta'minlangan. To'garakda zamonaviy o'qitish usullari asosida dasturlash va oliy matematikadan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmagan ishsiz fuqarolarga elektron qurilmalarni dasturlash ko'nikmalari berib boriladi.

SamDU "Umumiy fizika" kafedrasining fan to'garagida talabalar katta o'qituvchi B.Amonov rahbarligida "Boshlang'ich tezlaksiz harakatlanayotgan jismlarning qiya tekislik oxiridagi tezligini aniqlash" mavzusi bo'yicha robototexnika elementlaridan foydalanib laboratoriya ishini loyihaladilar.

Robototexnikaning ta'lim-dagi eng muhim o'ziga xos tomoni shundaki, undan uzluksiz ta'lim tizimini yaratishda, bo'lg'usi muhandisni tayyorlashda foydalanish mumkin.

Zamonaviy o'qitish jarayonini tashkil qilinishning yangi shakli — ta'lim robototexnikasini Davlat ta'lim standartlarining yangi avlodlariga, o'quv jarayonining turli sohalariga kiritish lozim:


1. Dars formasi (o'quv loyihalarini bajarish, namoyish tajribalari tayyorlash, laboratoriya ishlari uchun qurilmalarni va maktab fizik praktikumi uchun asboblarni yasash).
 2. Darsdan tashqari formasi (o'quvchilarning loyiha-konstruktorlik ishlari, tanlov va ilmiy-amaliy konferensiyalarda qatnashishi).
 3. Qo'shimcha ta'lim tizimida ishlash (klub va to'garak).
- Robototexnikani dars faoliyatida qo'llash ijobiy natijalar berishiga qaramasdan, juda ko'p predmet o'qituvchilari tajribasi ko'rsatmoqdaki, ta'lim robototexnikasi hozircha klub va to'garak darajasida faoliyat ko'rsatmoqda. Buning sababi, robototexnikani o'quv jarayoniga qo'llashning uslubiy yaratilmagan, o'quvchilar uchun o'quv qo'llanma va o'qituvchilar uchun metodik tavsiyalar yo'q.
- Shu bilan birga aytish kerakki, chet el mualliflarining robototexnikani fizikada, kimyoda va biologiyada qo'llash bo'yicha juda ko'p ishlari mavjud.
- Robototexnikani o'quv predmetlariga (fizika) qo'llash uslubini ishlab chiqishda,

eng avvalo, uni qo'llash maqsadini aniqlash kerak:

- 1) Robototexnikaning ilmiy-texnik taraqqiyotning eng muhim yo'nalishi ekanligini namoyish qilish;
- 2) Fizikani zamonaviy texnikada qo'llashni namoyish etish;
- 3) Ta'limning sifatini oshirish faoliyatini:
 - predmet bo'yicha bilimni chuqurlashtirish va kengaytirish;
 - tajribaviy ko'nikma va malakani rivojlantirish;
 - amaliy fizika sohasida bilimlarni takomillashtirish;
 - texnik loyihalash, modellashtirish va konstruksiyalashtirish bo'yicha ko'nikma va malakani shakllantirish;
- 4) O'quvchilarda predmetni o'rganishga motivatsiyani rivojlantirish;
- 5) O'quvchilarning kasbga qiziqishini kuchaytirish, ularni injener-texnik kasbiga yo'naltirish.

To'plangan tajribalarning tahlili va uni umumlashtirish robotlarni fizikani o'qitishda qo'llashning quyidagi yo'nalishlarini ko'rsatish imkonini beradi:

1. Robot o'rgatish obyektini ekanligi, dat-chiklar, dvigatellar va boshqa sistemalarning fizik prinsiplari o'rganish.
2. Robotning fizik tajribada o'lchash vositasini ekanligi.
3. Fizik tajribani o'tkazishda robotning vosita ekanligi (robotlashgan tajriba). Dvigatellar, xabar beruvchi sistemalar, dat-chiklarda robototexnik qurilmalar namoyishi va laboratoriya tajribasida kompleks qo'llash.
4. Robotning o'quv modellashtirish va konstruksiyalash vositasi ekanligi. Uni o'quvchilarning loyiha-tadqiqot va konstruktivlik ishida qo'llash:
 - a) mavjud robotlarni boshqa sistemalarda qo'llash;
 - b) yangi robot yasash;
 - c) robotni modernizatsiyalash (yangi datchiklar va uning boshqa sistemalar bilan yangi sharoitda ishlaydigan turlarini yaratish va h.k.).



Magnit muftalari yordamida aylanma harakat qonunlarini o'rganish (laboratoriya mashg'uloti)

Robototexnika elementlarini fizika darsida qo'llashning quyidagi ijobiy tomonlarini ko'rsatish mumkin:

1. Fizik kattaliklarni o'lchash natijalarini qayta ishlashni dasturlash; dasturni bajarish avtomatik rejimda amalga oshiriladi.
2. O'lchashda odamning sezgi organlari tufayli paydo bo'ladigan tasodifiy xatolarni bartaraf etish.

3. Tajriba vaqtda belgilangan vaqt ichida fizik kattalik qiymatining uzluksiz monitoringini olib borish, kerak bo'lsa uni bir necha marta takrorlash.

4. Tajriba natijalari ekranga son, sonli shkala ko'rinishida, uning qiymatlarini jadval va grafik shaklda chiqaradi.

5. Tajribada olingan grafik va uni ishlatishdagi qurollar fizik qonuniyatlarini tahlil qilishga qo'shimcha imkoniyat beradi:

- grafikning istalgan nuqtasi uchun son qiymatini chiqarish;
- berilgan vaqt oraliqida o'zgarayotgan kattalikning qiymatini chiqarish;
- qandaydir vaqt oraliqida o'rtacha kattalikni aniqlaydi;
- grafikni approssimatsiya (yaqinlashtirish) qiladi;
- koordinata tekisligida bir necha o'xshash tajribalarning grafiklarini chizadi.

Sanab o'tilgan yutuqlardan tashqari robototexnika (kompleks) qurilmalaridan maktab tajribasida foydalanishda kamchiliklar ham aniqlandi.

Birinchidan, robot ishlatilgan tajriba qurilmalari dastlab yig'ish va dasturlashni talab qiladi, bu esa ancha vaqtni talab etadi. Vaqtni kamaytirish uchun quyidagi tavsiyalar beriladi:

- a) qurilmalarni yig'ish qadamba-qadam bajarilishi;
 - b) turli xil qurilmalarda ishlash bankini yaratish, darsgacha yig'ishni o'rganish.
- Robototexnika qoidalarni ta'limga kiritish orqali bolalarning matematika, informatika, fizika, biologiya, ekologiya, kimyo fanlari va muhandislik mutaxassisliklarini egallashga qiziqishi va o'qishga rag'obati oshiriladi.
- Robototexnika qurilmalarni o'quv jarayonida qo'llashning imkoniyatlari juda keng va ularni amalga oshirish uchun o'qituvchilardan uslubiy va texnik tayyorgarlik talab qilinadi.
- Ikkinchidan, o'quvchilarning texnikani dasturlash va konstruksiyalashtirishga ishtiroqini oshiradi. Muhandislik kasbi hamda robototexnikaning ommalashuviga xizmat qiladi.

Uchinchidan, bu dasturlash ko'nikmasini hosil qilib, mantiqiy va algoritmish tafakkurini rivojlantiradi. Mamlakatimizda ham maktabgacha va umumta'lim muassasalari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida robototexnika vositalaridan foydalanilishi, o'g'il-qizlarning mantiqiy tafakkuri va dunyoqarashi kengayishiga ijobiy ta'sir etishi shubhasiz. Bu esa yuqori texnologiya bo'yicha mutaxassislar tayyorlashga asos bo'ladi.

Xulosalar va takliflar.

1. Ta'lim robototexnikasi hozircha klub va to'garaklar shaklida faoliyat ko'rsatmoqda.
2. a) tahlil shuni ko'rsatadiki, respublikamiz tumanlarida robototexnikaga ixtisoslashgan birona kollej yoki maxsus maktab-internet yo'q; birona umumiy ta'lim maktabida bugungacha o'qitilmagan;
- b) Rossiyaning umumta'lim maktablarida bu kurs DTSlarga kirgan. 5-, 6-sinfarda informatika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kurslari bilan o'qitilmoqda. Bizda umumta'lim maktablarining 9-sinf-

fidan boshlab bu kursni kiritish maqsadga muvofiq emas;

d) Respublikamizda robototexnikaga qiziqish ommaviy tus olganligini hisobga olib, tuman va shahar maktablarida kasb-hunar kollejlari yoki maxsus maktab-internetlar tashkil qilish kerak.

3. Robototexnikani o'quv jarayoniga qo'llashning uslubiy yaratilmagan. Qiziquvchilar, talaba, o'quvchilar va o'qituvchilar uchun o'quv qo'llanma va metodik tavsiyanomalar yo'q. Bu fan bo'yicha zamonaviy darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratish zarur. Robototexnikaning pedagogik-psixologik asoslari ishlab chiqilmagan, birona nomzodlik dissertatsiyasi yaratilmagan. Rivojlangan davlatlarda tayyorlangan darslik, o'quv-uslubiy qo'llanmalarni o'zbek tiliga tarjima qilish kerak.

4. Robotlar haqidagi tushunchalarni ta'limning barcha bo'g'inlarida, jumladan maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab kiritish maqsadga muvofiq.

5. Robototexnika ta'lim yo'nalishi bo'yicha birgina Toshkent davlat texnika universiteti, Turin politexnika va Inha universitetlarida robototexnika bo'yicha mutaxassislar tayyorlash yetarli emas. Zudlik bilan malaka oshirish muassasalarida onlayn kurslar, barcha iqtisodiyot, pedagogika va texnika oliy o'quv yurtlarida zamonaviy mutaxassislar tayyorlash zarur.

6. Kelajak robototexnikasi — intellektual va dasturlashgan robotlarni birlashtirish jamiyatning ham talablariga mos keladi. Hozircha robototexnika, sun'iy ong(intellekt)da uzoq muddatga bashorat qilish imkoniyati yo'q. Bu masalalarni hal etish uchun turli darajadagi robotlarni bitta umumiy maqsadga yo'naltirish kerak. Buning uchun zamonaviy robotlarni yaratish va uni amaliy maqsadlarga yo'naltirish uchun ilmiy-tadqiqot instituti yoki ilmiy markaz tashkil qilish kerak. DTM, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy va o'rta maxsus ta'limni rivojlantirish bosh metodik markazi, Qori Niyoziy nomidagi pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti bilan birlashtirilishi hisobidan zamonaviy robototexnika institutini tashkil qilish mumkin. Bu institut davlatimizda turli xil idoralarda sochilib yotgan masalalarni hal etishi kerak. Bu markaz tarkibiga zamonaviy robototexnika va mexatronikaning nazariy asoslari; uning pedagogik-psixologik asoslari; matematik, mexanik va fizik-kibernetik asoslari, intellekt robotlar va kvant texnologiyalari, innovatsion o'qitish texnologiyalarini ishlab chiqish va uni amaliyotga qo'llash bilan shug'ullanish zarur. Makur markaz Vazirlar Mahkamasi huzurida tashkil qilinishi lozim.

7. Robototexnika haqida ommaviy axborot vositalarida, jumladan televideniya, press-klub, master-klasslarda yetakchi mutaxassislarning chiqishlari ommangun nisbatan qiziqishini yanada oshiradi. Keltirilgan taklif va mulohazalar raqamli iqtisodiyotning talablaridan kelib chiqadi va davlatimiz qo'ygan vazifalarni bajarishda qulaylik tug'diradi.

Obloquq QUVONDIQOV, professor, Xalqaro Pedagogika Fanlar akademiyasi a'zosi, fizika-matematika fanlari doktori

Arzimas boshog'riqlar

Botmon-botmon boshyorarga aylanmasin

Amerikada o'qiydigan tanishimning hikoyasidan: bir kuni yo'lakdagi qorlarni kurab tursam bir kishi "nimaga tozalayapsan, kimdir yiqilib ustingdan shikoyat qildimi, deydi. Hayron qoldim. Biz tomonlarga kelinglar tong sahardan ko'chalarni chinniday qilishadi. Ana fayz, mana baraka!".

Ha, buvimning ta'бири bilan aytganda, kim sahar turib, hamma joyni saranjom-sarishta qilsa, yerning yuzini ochsa, Yaratgan uning peshonasini yorug' qiladi. Bugun tozalik, ozodalik haqida emas, balki mana shunday fazilatlarini o'zida mujassamlashtiradigan qalb qo'ri — ma'naviyat xususidagi fikrlar bilan o'rtoqlashamiz.

O'tgan yili butun insoniyat qatori xalqimiz ham og'ir bir davrni boshidan o'tkazdi. Nazarimizda unutilib ketyotgan qadriyatlar, o'zaro mehr-oqibat avvalgidan-da balandroq bo'y ko'rsatdi. Ayniqsa, kutilmaganda Sardoba suv ombori to'g'oning o'pirilishi sodir bo'ldi. Voqea yuz bergan kunning o'zida Jizzax, Samarqand, Toshkent, Buxoro, Qashqadaryo, Andijon, Surxondaryo va boshqa viloyatlardan Sirdaryoga issiq kiyim-bosh, ko'rpa-to'shak va turli oziq-ovqat mahsulotlari yuklangan ko'mak karvonlari ketma-ket yetib kelgandi.

O'sha paytlar internet tarmoqlarida, televizor orqali saxovatpesha yurtdoshlarimizning amallari ko'pchilikka ibrat bo'ldi. Meni hayron qoldirgani, yanada quvontirgani kichkina, adashmasam 5-6 yoshlar atrofidagi bolakayning to'plagan

pulini Toshkent shahar hokimligidagi Sardobaga yordam uchun maxsus hisobraqamga jamg'arma xodimlarining "Sizdan pul olmaymiz" deyishiga qaramay topshirib ketgani bo'lgandi.

Aslida, shu mehr-muruvvat emasmi — Ma'naviyat deganimiz.

Fikrlayapmiz, demak — yashayapmiz

Xiyobon orqali metro bekati tomon yurdim. Chamasi 16—18 yoshlar atrofidagi yigit-qiz o'rindiqqa kelib o'tirdi. Kursdoshimi yoki boshqa bir tanishi, menga qorong'u edi. Faqat tanish holati bola sherigiga sumkasidan bir nechta kitob olib berdi. Suhbat mutolaa haqida bo'lganmi yo'q, har holda hali ma'naviyat va ma'rifat ulashish fazilatini unutmaganimiz ko'ngilga xotirjamlik ulashardi. Xayolimdan taniqli rus yozuvchisi Chexovning "Bizning ishimiz — o'qish va o'qish, imkoni boricha ko'proq bilimga ega bo'lish uchun intilishdir, chunki jiddiy ijtimoiy yo'nalishlar — bilim bor yerda, insoniyatning istiqbol baxti ham faqat bilimdadir" degan fikri o'tardi. Mutolaa qilayapmiz, fikrlayapmiz, demak — yashayapmiz.

Ilm o'rganish, bilim olish va bir-birimizga ulashish emasmi — Ma'naviyat deganimiz.

Ustozning xavotiri

Kattalarni hurmat qilish, kichiklarga izzat ko'rsatish qonimizda bor. Ongimiz hech shak-shubhasiz yo'limizdan chiqqan yoshi ulug' insonlarni ko'rganda "assalo-

mu alaykum" deyishga buyuradi. Shuningdek, bu oilaviy muhit qadryatlarining ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Avtobus bekatida ikki dugonaga ko'zim tushdi. Adashmasam talaba edilar. Biri ikkinchisiga dedi.

— Taksi to'xtataymi?

Sherigi telefonda gaplashib turib, mayli ishorasi sifatida qo'lini silkitdi. Ha, deganda avtomobillar to'xtamadi. Unga cha biz kutgan avtobus keldi. Qizlar ham chiqib, oldingi o'rindiqdan joy oldilar. Telefondagi suhbatini yo'lma-yo'l davom ettirgan qiz kamiga juda baland ovozda gaplashar, atrofdagilarning e'tiborini tortardi.

Axborot asrining yutuqlari kundankun ortib bormoqda. Xohlaymizmi, yo'qmi biz u bilan, u biz bilan. Texnikaning qulayligi ishimizning unumini oshirgani ham rost. Biroq bu degani oila qo'rg'onini qurishda bu "mo'rt poydevor"ga ishonish kerak degani emas. Ijtimoiy tarmoqlarda aynan qiz yoki yigitning ma'lumotlarini ulashish orqali "minnatli sovchi"larning faoliyatidan xabari bo'lmagan kishi yo'q. O'z davrida Amir Temurdek buyuk sarkarda bu masalaga shaxsan o'zi e'tibor qilganda biz unga shu qadar yengil qarayotganimiz achinarli emasmi?

So'z anglamaganlar uchun

Yoki bo'lmasa karantin choralarini kuchaytirilgan bir paytda Amir Temur xiyoboniga "trend" darajasiga chiqishi "eplagan"lar. Afsuski, ularning biri qiz bola. Xo'sh, buning aybsiz aybdorlari ota-onami yana? Telefon olib berib uzog'ini yaqin qilganiyu, ilm olishi uchun imkon yaratganimi gunohi ularning?

Yo'q, bu o'zini anglamaslik. Fikr-lamaslik, manqurtlikning ko'rinishi xolos.

Ko'pchiligimiz kattalarning e'tiborsizligini peshlashga urinamiz. Go'yo ular uni qil, buni qilma, deya eslatib turishi kerak.

Ha, ota-onalar, ustozlar, aka-opalar o'rnak bo'lishi lozim, aytib turishi emas. Hazrati Rumiyning ta'бири bilan aytganda, so'z anglamaganlar uchun.

Taassufki, kichiklarga o'rgatadiganlarning, tarbiyalaydiganlarning o'zlari ba'zan targ'ibotchiga aylanib qolayotgilar (ayrim rasmiylar tik-tok tashviqotchisi ham bo'lgani sir emas). Xo'p, zamoning bu kabi "aql ziynat"lari orqali yoshlarga nisbatan yaqinlik, hamfikrlarni bildirishning namunali usullari bo'lsa, qani endi. Masalan, videoparchada o'zaro bir-biriga kitob yoki gazeta ulashish kabi chiqishlarni tashkil etishsa-chi?! Biroq befarqlik, loqaydlik, e'tiborsizlik natijasida bolalar tarbiyasi telefonning qo'lga o'tdi...

Sergaklik kerak

Bu holatlar, ehtimol, ikir-chikirk gaplardek tuyular. Balki boshqotirishga arzimasdek ko'rinar. Mamlakatimiz rahbarining loqaydlik va beparvolik eng katta xavf ekanini, bugun uchrayotgan ijtimoiy muammolarni kamaytirish uchun yurioniyalar tarbiyasi, jamoatchilik nazorati yetishmayotganini haqidagi xavotiri bejiz emas. Aynan bugun misolcham "boshog'riqlar" ertaga botmon-botmon bo'lib boshyorarga aylanmasa edi. Xotirjam bo'lish uchun esa bugundan loqaydlikka barham berish, uzoqda-ku, meniki emas-ku, bolam emas-ku, deb emas, aksincha, sergaklik bilan oldini olishimiz kerak.

Shohista YUNUSALIYEVA,
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat
markazi mutaxassisi

O'qituvchi minbari

Sog'lom bola tengdoshiga tenglasha oladi

Sinfidagi hamma bola ham o'qituvchi bergan bilimni birdek o'zlashtirmaydi. Ular orasida xotirasi past, diqqati tarqoq, nutqi yaxshi rivojlanmagan bolalar bo'lishi mumkin. Ba'zi ota-onalar farzandidagi bu kamchiliklarni sezmaydilar ham. Dars qilmasa haqoratlab, ayrimlari kaltaklab boladagi o'qishga bo'lgan ishtiyoqning borini ham so'ndirib qo'yadilar. Agar bola har tomonlama sog'lom bo'lsa, u har qanday bilimni, har qanday ko'nikmani egallay oladi.

12 yillik faoliyatim davomida o'quvchilarni kuzatib, ularning jismonan va ruhan salomatligini ko'p o'rganaman. Hatto, o'quvchilarning ota-onalariga ularni qanday shifokorga ko'rsatish kerakligi haqida tavsiyalar beraman.

Aslida, yuqoridagi nuqsonlari bor bolalarni 1-sinfda savod o'rgatish jarayonidayoq payqayman. Ular tovushlarni talaffuz qilishda qiynaladi. Shuning uchun bilgan narsalarini ham jamoada aytgisi kelmaydi. Chunki to'g'ri talaffuz qila olmayman degan xavotir bo'ladi. Zero, maktabgacha ta'lim muassasasida tengqurlaridan bu kamchiligi borligini allaqachon eshitgan bo'ladi. Bolalar bir-biridagi kamchilikni sezdimi, darhol uning o'ziga aytishga usta bo'lishadi.

Shu sababli bunday bolalarda doimo xavotir, hayajon, qo'rquv va o'ziga ishonchsizlik bo'ladi. Diqqati tarqoq yoxud diqqati rivojlanishdan orqada qolgan bolalar dars davomida uzoq mud-dat o'qituvchini tinglashga sabri yetmaydi. Ular darsni tinglayotgandek tuyulsa-da, aslida xayol-lari parishon yoki boshqa narsalar bilan band bo'ladi. O'rgatilgan mavzuni hamma qatori jamoada o'zlashtira olmaydi. Bunday bolalar murakkab narsalarni yoqtirmaydi, ularga hamma jarayonning sodda ko'rinishi ma'qul bo'ladi. Shu bois, dars davomida mavzu uchun misol keltirish joiz bo'lsa, ularning ismlari ishtirok etgan ertak, hikoya va matnlardan foydalanish yanada yaxshi samara beradi. Multi-medial ilovalardan foydalanish

jarayonida Notebook, televizor pulti yoki boshqa texnik vositalardan foydalanishda o'quvchilarni ishtiroki lozim bo'lsa ham aynan shu tengqurlaridan biroz orqada qolayotgan o'quvchilarni ko'magidan foydalanishni tavsiya qilaman. Zero, ular bunday texnikalarni tengqurlariga qaraganda yaxshiroq biladi va ulardan foydalanishni juda yoqtirishadi. Shu bois, bu usul ularning darsingizga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi. Bunday bolalar bilan darsdan keyin kichik-kichik guruhlarda, to'garakda har kungi o'tilgan mavzu, materiallarni takrorlash lozim. Zero, bu bolalar o'rganishi, eslab qolishi qiyin kechsa-da, bir o'rgangan narsasini, ma'lumotini hech qachon unutmaydilar.

Biz pedagoglarning mahoratimiz qachon seziladi? Qachonki, yuqoridagi nuqsonlari bor o'quvchilarni tengqurlari darajasiga yetkaza olsak. Buning uchun avvalo, bor mehrimiz, bilimimiz, kuchimiz-u mahoratimiz, ijodkorligimiz va eng muhimi, vaqtimizni ayamasligimiz kerak. Darslarimizda umumiy tushuncha berilgach, a'lochilar buni darhol ilg'aydi va topshiriqni tez fursatda bajaradi. Shu vaqtda biz faqat a'lochilar bilan kifoyalnamay, yordamga muhtoj o'quvchimiz oldida bo'lishimiz, ular bilan individual ishlashiimiz lozim. Maktab psixologi, ota-onasi hamda shifokorlar yordamida bolaning nutqi, diqqati, miya faoliyati ustida muntazam ish olib borish kerak.

O'qituvchi ko'magisiz ota-ona ham ijobiy natijaga erisha olmaydi. Ota-ona yordami bo'lmasa, pedagog ham kutilgan natijaga erishmaydi. Zero, bunday bolalar doimiy ravishda, toki tengdoshlariga tenglashib olmaguncha nevropatolog va psixolog nazoratida bo'lishi, tegishli muolajalar olib turishi kerak.

Hurmatli pedagoglar, jamoangizda shunday bolalar borligini sezdingizmi, ota-onasiga shubhalaringizni aytib. Bu bolalarning miyasi rivojlanishdan to'xtab qolmagan, faqat biroz orqada qolgan bo'lishi yoki qandaydir vitamin va minerallar yetishmayotgan bo'lishi mumkin. Vaqtda oldini olib, birgalikda harakat qilinsa, sog'lom avlod yetishtira olamiz. Ota-onalarda farzandini tengqurlari bilan solishtirish imkoniyati kam, shu bois tengdoshlaridan ortda qolayotganini sezmasliklari mumkin. O'qituvchi esa, buni tezda fahmlaydi, ilg'aydi. Ochiq darslar, tarbiyaviy soatlar hamda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ota-onalarning ishtiroki ham farzandlarining darajasini boshqa bolalar bilan solishtirishlarga yaxshi imkon. Ota-onalar esa, bunday kamchilikni bilishsa o'qituvchi bilan hamkorlikda bolaning o'ziga sezdirmay ish olib borsalar farzandining salomatligi o'qishini tiklab olish imkoniga ega bo'ladi.

Zebo YUSUPBOYEVA,
Ellikqaf'a tumanidagi
12-maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Ilmsizlik va ma'naviyatsizlik “botqog‘i” yoxud TikTokning zararli oqibatlarini haqida

Bugun ayrim insonlarning o'zini namoyon qilishga bo'lgan xohish va intilishlari ularni g'ayritabiiy ishlarga undamoqda. Jamiyatda tayinli o'z o'rniga ega bo'lmagan ayrim shaxslar o'zlarini “tanitish”, “iqtidori”ni ko'rsatish orqali nimanidir isbotlashga intilmoqda. Bunday intilishlar jamiyat ma'naviy muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda, yoshlarning saviyasi va didi pasayishiga sabab bo'lyapti. Anglagan bo'lsangiz, gap bugungi kunda urfga aylanib borayotgan TikTok va tiktokerlar haqida.



Xo'sh, TikTok o'zi nima? U nimasi bilan insonlarni o'ziga jalb qilmoqda?

TikTok Xitoyning “ByteDance” kompaniyasiga tegishli bo'lgan qisqa hajmli videoroliklarni ko'rishga mo'ljallangan server bo'lib, 2018-yilda ishga tushirilgan versiyasi Xitoyda eng yetakchi videoplatformaga aylandi. Qolaversa, u dunyoda ham keng tarqalib, eng ko'p yuklab olinayotgan ilova sifatida shakllandi.

Bugun TikTok nafaqat zerikishning oldini olish, ovunish, balki blogerlar uchun o'z kontentida mo'aydarom daromad topish vositasiga ham aylanib bormoqda. Ayrimlarda esa jamiyatdagi o'z o'rnidan qoniqmaslik hissining paydo bo'layotgani, qanday bo'lsin — bachkanaliki, o'z jonini xavf ostiga qo'yish hisobiga bo'lsa-da, odamlar e'tiborini tortish, shu orqali ijtimoiy tarmoq “yulduz”ga aylanish va “prosmotr”larni ko'paytirishga bo'lgan qiziqish ularni mazkur ijtimoiy tarmoqqa ipsiz bog'lab qo'yimoqda.

TikTokda smartfonning o'zida klip olish va unga vizual effektlarni qo'shish imkoniyatining mavjudligi hamda uni videoxostingga joylashtirish mumkinligi mazkur ijtimoiy tarmoqning odamlar orasida ancha ommalashishiga xizmat qilyapti.

TikTokning asosiy afzalligi chellenj bilan bog'liq. Gap shundaki, foydalanuvchilarga muallifning biror-bir o'ylanmasi yoki xatti-harakatlarini takrorlash va o'z sahisiga joylashtirish imkoniyati yaratilgan. 2020-yilning eng ommalashgan fleshmobi — “Flip The Switch Challenge”ni eslash kifoya. Uning g'oyasi juda oddiy: musiqa sadosi ostida ikki odam ko'zga qarshisida raqsga tushadi, bir lahzada montaj varianti ekranga chiqib keladi va videorolik qahramonlari o'rin almashadi.

Biroq odamlarning TikTokka bo'lgan qiziqishlari ba'zan ayanchli oqibatlariga ham olib kelmoqda. Shunday hodisalardan biri o'tgan yil boshida Hindistonda Keshav Kumar bilan ham sodir bo'ldi. U harbiylar oilasida katta bo'lgan, shu bois uyida

qurol saqlangan. U bir necha bor onasidan TikTokda video olish uchun to'punchani berib turishni so'ragan. Avvaliga onasi bunga rozi bo'lmagan, biroq o'g'lining hadeb qistayverishidan bezor bo'lib, unga qurolni berishga majbur bo'ldi. Oradan ma'lum vaqt o'tgach, Keshav xonasida to'punchaning tovushi eshitildi. O'g'lining xonasiga yugurib borgan onasi uni polda yiqilib yotgan holda ko'rdi. Keshav to'satdan to'punchaning tepkisini bosib yuborgan edi. Keshav tezda shifoxonaga yetkazilganiga qaramay, jonini saqlab qolishning imkonini bo'lmaydi.

TikTokda inson salomatligiga raxna soladigan fleshmoblar ko'p. Shulardan biri — Skull Breaker deb nomlanadi. Mazkur fleshmob unda ishtirok etadiganlarning sog'lig'iga ziyon keltirishi, oqibati ayanchli yakun topishi mumkin. Mazkur videoroliklarning mohiyati quyidagicha: kamera qarshisida uch odam turib oladi. Ikki yondagisi oldindan kelishib olib, o'rtadagi sherigidan sakrashni so'raydi, shu lahzada ikki yondagi “do'stlari” uning oyog'iga tepishadi. Oqibatda sakragan odam gursillab yerga yiqilib tushadi. Bu ko'p holatlarda jarohatlarga sabab bo'ldi.

Shu yerda bir mulohaza. Yaqin-yaqingacha selfi tushman deb o'z jonini xatarga qo'yan insonlar haqida internet va televideniye orqali ko'plab noxush xabarlariga duch kelardik. Endi esa TikTok atalmish yangi tahdid undan ham oshib tushyapti. Bir urfdan qolib, ikkinchisi urfga aylanayapti go'yo. O'ylanib qolasan, nahotki omma e'tibori, ularning “like”i insonning o'z hayotini xavf-xatarga qo'yishiga arzisa?

TikTokning yana bir salbiy jihati — insonlar ruhiyatiga yot g'oya va qarashlarning, tubanlik va jaholatning targ'ib qilinyotgani. Bir bola tort bilan onasining yuziga urganini eslang. Hech bir quyushqonga to'g'ri kelmaydigan bolaning bu ishi onaning yuziga oyoq qo'yish bilan baravar emasmi? Nokas bola bu ishi ertaga unga farzandlaridan qaytishini bilarmikan?

Bunday qabih ishga qo'l urgan farzand oxiratini o'ylamadimikan? Bu aslida fojia, insoniyat fojiasi...

Mazkur ijtimoiy tarmoqning yaratilganiga ko'p vaqt bo'lmagan esa-da, ancha ommalashib ulgurdi. COVID-19 pandemiyasining tarqalishi bilan bir vaqtda TikTok ham koronavirus singari odamlar orasida keng tarqala boshladi. App Store va Google Playning rasmiy ma'lumotlariga qaraganda, mazkur ilovaga yuklangan materiallarning soni dunyo bo'yicha ikki milliardga yetdi. 2020-yil birinchi choragining o'zida mazkur ijtimoiy tarmoq 315 million nafar yangi foydalanuvchiga ega bo'ldi. Bu avvalgi chorakdagi ko'rsatkichlardan ancha yuqori sanaladi.

O'tgan yilning avgust oyida TikTok dunyodagi eng ommabop ilova sifatida tan olindi. U App Store va Google Play orqali eng ko'p yuklangan ilovaga aylandi. 2020-yil yozining so'nggi oyida TikTok rasmiy internet-do'konlar orqali 63,3 million marta yuklab olingan.

Aytish joizki, bunda koronavirus pandemiyasi ta'sir ko'rsatdi. Chunki odamlar karantin payti uyda qolib, vaqt o'tkazish uchun o'zlariga ovunchoq, ermak topishga berilishdi. Bunda TikTok juda qulay vositaga aylandi.

Bugun afsuski, mamlakatimizda ham TikTokda turli bema'ni qiliqlar, raqslarni tasvirga olib, o'z sahifasiga joylashtirish orqali omma e'tiborini qozonishga harakat qilayotgan yoshlar safi tobora kengayib borayotgani achinarlidir. Shou-biznes olamidagi ayrim shaxslar ham uning targ'ibotiga hissa qo'shayotgani, TikTokda qolipga sig'maydigan turli bachkana qiliqlar qilib, behayo videolar qo'yib odamlarning e'tiborini tortishga intilayotganini qanday izohlash mumkin?!

Yaqinda yurtimizda internetdagi bir holat ko'plab muhokamalarga sabab bo'ldi. Ijtimoiy tarmoqlarda xalqaro sport musobaqalarida yuksak natijalarga erishgan sportchilar va TikTokda “muvaffaqiyat qozongan” tiktokerning suratlarini yoma-yon joylashtirildi. Sportchilar qo'lida oddiy faxriy yorliq ko'tarib turibdi, tiktoker esa e'zozda: katta mulozim qo'lidan qimmatbaho sovg'ani qabul qilib olayotgani tasvirlangan.

Endi aytinch, qachondan boshlab bema'nilik va bachkanalik mukofotlanadigan bo'ldi? Vatan bayrog'ini baland ko'targan, yurt dovrug'ini dunyoga yoyayotgan sportchilar qolib, endi maynavozchilik qiladigan davraning to'rida bo'ladimi? Bu bilan TikTok yaxshi narsa, u mashhurlikka yo'l ochadi, deya odamlar orasida e'tibor va hurmat qozonishga xizmat qilishi targ'ib qilinyaptimi? Yoki bugun jamiyatimizda ilmsizlik trendga chiqdimi? Nega biz “trend” ortidan quyib, ma'naviyatni chetga surib qo'yishimiz kerak?!

Ko'pni ko'rgan, hayotiy qarashlarga ega insonlar bu bema'nilikka qayrilib ham qaramaydi. Ko'rsa, ko'ngli ayniydi. Jinlikka yaqin bunday qiliqlardan g'ashi keladi. Lekin hali oq-u qorani tanimagan, yetarli hayotiy tajribaga ega bo'lmagan yoshlar TikTokka ko'r-ko'rona ergashib, uni o'ziga “do'st” bilsa, buning oqibati qanday bo'lishini anglayapmizmi? Ularining ertaga qanday insonlar bo'lib voyaga yetishini tasavvur qilyapmizmi?! Ular

qadriyatlarimizni unutan, yaxshi narsaning farqiga bormaydigan, didsiz, hissiz, manqurt odamga aylanmaydimi?!

To'g'ri, har doim aytiladigan bir gap bor: tanganing ikkinchi tomoni ham bo'ladi. Ezgulikka chorlaydigan, oqibat va yaxshilik qilishga undaydigan TikTok videoroliklari ham yo'q emas. Ularning yoshlar ma'naviyatiga ijoiy ta'sir ko'rsatadigan tomonlari bor. Lekin, afsuski, ular juda kam.

Hozircha bir narsa bizga taskin berishi mumkin: yaqinda Tik Tok 18 yoshdan kichik foydalanuvchilarga bir qator cheklorlar joriy etdi.

Endi 13–15 yoshli bolalarning akkauntlari avtomatik tarzda xususiylashadi — ularni faqatgina obunachilar ko'ra olishi mumkin, izoh qoldirish imkoniyati faqatgina “do'st”larga beriladi. Boshqalar uchun bolaning akkaunti yopiq bo'ladi.

Bu choralar o'smirlar “platformada chiqishlarga aql bilan yondashishi”ga ko'maklashish uchun qilinmoqda. “TikTok platformada foydalanuvchilar, shu jumladan, voyaga yetmaganlar o'z ijodlari bilan bo'lishishlari uchun do'stona va xavfsiz muhitni yaratmoqchi” deb tushuntirish berildi kompaniya tomonidan.

Bundan tashqari, 13–15 yoshli foydalanuvchilarga “Boshqalarga hisob qaydnomasini taklif etish” funksiyasini o'chiradi. Duet funksiyasi, boshqalarning lavhalaridan o'z roliklarida foydalanish — stiching va video yuklab olish ham mumkin bo'lmaydi.

16-17 yoshli o'smirlar duet opsiyasi va stiching faqat “do'stlar” uchun ochiq bo'ladi. Boshqa foydalanuvchi muallif 16 yoshga to'lgan taqdiridagina uning roligini saqlab olishi mumkin.

2019-yil fevralida AQSH hukumati TikTokni voyaga yetmaganlarning ismi, elektron pochta va yashash manzilini to'plagan uchun 5,7 million dollar jarimaga tortgan edi. Shundan so'ng bolalar faqatgina video tomosha qila oladigan, ammo kontent va izoh qoldira olmaydigan bo'lim paydo bo'ldi.

2020-yilda TikTok dasturchilari “Xavfsiz oila rejimi”ni ilova qilishdi. Bu ilova ota-onalarga voyaga yetmaganlarning shaxsiy ma'lumotlarini to'liq sir saqlash imkonini beradi. “Oila” rejimini ota-onalar ruxsatisiz o'chirish mumkin emas.

Xulosa o'rinda shuni aytish lozimki, yaltirab ko'ringan hamma narsa ham olmos yoki oltin bo'lavermaydi. TikTok singari chetdan kirib kelayotgan hodisani “trend” sifatida qabul qilish, ko'r-ko'rona o'zlashtirish nodonlikdan boshqa narsa emas. Qolaversa, bugun biz boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlariga bepisandlik bilan qarash, ularni qo'porish, aholining, ayniqsa, yoshlarning qalbi va ongini egallashga qaratilgan tahdidlar ko'payib borayotgan murakkab bir davrda yashayapmiz. Ma'naviyati butun, oq-qorani tanigan, buyuk ajdodlarga ega xalq ekanimiz, TikTok singari mag'zi puch, g'oyaviy bo'sh, odamlarni nodonlik, ilmsizlikka undaydigan tahdidlarga qarshi turaylik. Uning yoshlarimiz ongini zaharlashiga yo'l qo'ymaylik. Bilib-bilmay uning targ'ibotchisiga aylanib qolmaylik!

Alisher MUQIMOV,
tadqiqotchi

“Ma'rifat” repetitori

Majburiy fanlar asosida tuzilgan, mavzulashtirilgan testlarning 22-varianti

ONA TILI (8-sinf: 3-38-betlar)

1. Quyidagi so'zlardan nechitasi kishilarda uchraydigan nuqsonlarni ifodalaydi?

Kamtar, manman, g'urur, kibr, hayo, odob, gunoh, ziqna, saxiy.

- A) to'rtta B) beshta C) oltita D) yettita

2. Rasmiy axborot berishga, davrning ijtimoiy-siyosiy masalalarini aks ettirishga mo'ljallangan ommaviy axborot vositalari qaysi nutq uslubidan foydalanadi?

- A) rasmiy B) ilmiy
C) publitsistik D) badiiy

3. Qaysi javobdagi matnda voqea-hodisa yoki holat oddiy axborot tarzida berilmagan?

A) Alisher Navoiy asarlari o'zining badiiyligi, mazmundorligi va go'zalligi bilan Nizomiy Ganjaviy, Sa'diy, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy asarlaridan ustun turar edi.

B) Navoiyning betakror nazmi oldida, hatto Sa'diy va Hofizning she'riyat osmonidagi yulduzlari ham xira tortdi. «Nizomiy panjasiga panja urib» bunyod qilgan «Xamsa»si «Panj ganj» shuhratiga soya soldi.

C) Buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy 1441-yilning 9-fevralida tug'ildi. Shoiming she'rlari XV asrning 60-yillaridayoq mashhur bo'la boshladi.

D) Yillar o'tishi bilan Alisher Navoiy asarlarining shuhrati ortib bordi va butun jahonga tarqaldi. Yevropa va Osiyodagi barcha davlatlarda Alisher Navoiy kitoblarining yoyilishi, ularning o'nlab tillarga tarjima qilinganligi buning yorqin dalilidir.

4. Insho so'ziga to'g'ri izoh berilgan javobni aniqlang.

- A) tashkil etish; yaratish, qurish, barpo qilish
B) o'ylash, fikr yuritish
C) madaniy, ma'rifiy, ma'naviy sohalarga oid nazariy tushunchalar majmuyi
D) yangilik topish, yaratish harakatida bo'lish

5. Insho mazmun-mohiyatiga ko'ra necha turli bo'ladi?

- A) turlarga ajratilmaydi B) 5 C) 4 D) 3

6. O'quvchi inshoning rejasiga ko'ra mavzu haqidagi umumiy fikrlarini qaysi qism(lar)ida bayon etadi?

- A) asosiy qismida B) kirish qismida
C) xulosa qismida D) asosiy va xulosa qismlarida

7. Insho rejasiga haqida berilgan noto'g'ri hukmni aniqlang.

- A) Oddiy reja insho mavzusini bir bosqichda qism-larga ajratadi.
B) Murakkab reja ajratilgan qismlarni yana ichki qismlarga bo'ladi.
C) Oddiy reja asosiy, kirish, xulosa bo'lmaydi.
D) Har qanday ijodiy ish kabi insho rejasiga ham uch qismdan iborat bo'ladi.

8. Qaysi javobda adabiy insho mavzusi berilgan?

- A) Inson har narsadan ulug'.
B) «Alpomish» dostonida qahramonlik tasviri.
C) Muxtasar nutq – go'zal nutq.
D) Abdulla Qodiriy – tarixiy romanlar ustasi.

9. O'quvchining adabiyot darsligidagi ma'lumot-larga bevosita daxldor bo'lmay, umuman, ma'lum bir mavzuga oid bilimlari, axloqiy-tarbiyaviy, ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashi, fikr-mulohazalarini aks ettiruvchi insho ...dir.

Nazariy matndagi nuqtalar o'rniga mos keluvchi birlik qaysi javobda berilgan?

- A) adabiy mavzudagi insho
B) erkin mavzudagi insho
C) ilmiy mavzudagi insho
D) adabiy-ijodiy insho

10. Epigraf haqidagi noto'g'ri hukmlarni aniqlang.

1. Inshoning mazmuniga mos keluvchi mashhur hikmatli so'z, maqol, ibora yoki badiiy parcha epigraf deyiladi.

2. Epigraf, odatda, rejadan keyin, insho matnidan oldin, sahifaning o'ng chekkasida yoziladi.

3. Epigraf insho matnining asosiy qismida yoziladi.

4. Inshoda epigraf bo'lishi qat'iy talab etiladi.

5. Mavzu va ichki mazmunga hamohang keluvchi epigraf tanlash inshoning badiiyligiga xizmat qiladi.

- A) 1, 2 B) 2, 3 C) 3, 4 D) 4, 5

11. Nutqning tasviriy vositalaridan, ko'chma ma'noli so'zlardan, obrazli ibora, maqol va matallardan deyarli foydalanilmaydi. Terminlar, ilmiy dalil va tushunchalardan keng foydalaniladi. Unda axborot aniq va lo'nda ifodalanishi, tushunarli bo'lishi lozim. Mantiqiy fikrlash, dalillarning mohiyatini ushinish, narsalarning xususiyatlarini yaxshi bilish asosida yoziladi.

Ushbu ma'lumotlar qaysi insho turiga xos?

- A) adabiy insho B) erkin insho
C) ilmiy insho D) adabiy-ijodiy insho

12. So'z birikmasi haqidagi hukmlarning nechta-si to'g'ri?

1. So'z birikmasi bo'lish uchun kamida ikkita: yordamchi va mustaqil so'z bo'lishi lozim.

2. So'zlar bir-biri bilan teng bog'lanishi zarur.

3. Bog'lanayotgan so'zlar ma'no jihatdan mos bo'lishi talab etilmaydi.

4. So'zlar bog'lanishida oldin kelgan so'z tobe so'z, keyin kelgan so'z hokim so'z deyiladi.

5. Tobe so'z hokim so'z ma'nosini izohlaydi, to'ldiradi.

- A) beshtasi B) to'rttasi
C) uchtasi D) ikkitasi

13. Quyidagi birikmalarni teng va tobe bog'lanishiga ko'ra tasniflang.

1) otam bilan onam; 2) yurtim shamoli; 3) sog'lom avlod; 4) yoshlar va kelajak; 5) ona-yu bola; 6) maktab hovlisi.

a – teng bog'lanishli birikma; b – tobe bog'lanishli birikma

- A) a – 1, 3, 5; b – 2, 4, 6
B) a – 1, 2, 3; b – 4, 5, 6
C) a – 2, 3, 6; b – 1, 4, 5
D) a – 1, 4, 5; b – 2, 3, 6

14. Qaysi javobda hokim so'z ot bilan ifodalangan?

- A) hammasidan katta
B) o'quvchilarning beshtasi
C) shaharning ko'chalari
D) do'stlarning barchasi

15. Qo'shma so'z berilgan javobni aniqlang.

- A) O'rta Chirchiq B) katta bino
C) qahramonlarcha D) sog'inchli salom

UYGA VAZIFA: Keyingi sonda 8-sinf "Ona tili" darsligidagi 41–76-betlarda berilgan mavzular asosida tuzilgan test topshiriqlari beriladi. Mazkur mavzularini qunt bilan o'qing va bilimingizni mustahkamlang.


Dildor NURMUHAMMEDOVA,
Termez shahridagi 23-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

MATEMATIKA ("Hisoblash qoidalari") 6–8-sinf materiallari bo'yicha

16. Standart shaklga keltiring: 83200000

- A) $8,3 \cdot 10^7$ B) $8,32 \cdot 10^7$
C) $8,32 \cdot 10^7$ D) $8,3 \cdot 10^6$

17. Agar mayda kubchanning tomoni 2 sm.ga teng bo'lsa, berilgan shaklning hajmini toping.




- A) 192 sm^2 B) 172 sm^2 C) 162 sm^2 D) 202 sm^2

18. Quyidagi javoblarning qaysi birida prizma tasvirlangan?



19. Son o'qidagi har bir bo'lma 20 km.ga teng. A dan B ga boradigan avtomobil bu oraliqni 50 km/soat tezlik bilan bosib o'tadigan bo'lsa necha soat vaqt sarflaydi?



- A) 1 B) 2 C) 4 D) 20

20. $22 \cdot 43 \cdot 98 + 16 \cdot 27 \cdot 38 \cdot 19$ yig'indining oxirgi raqami toping.

- A) 6 B) 8 C) 2 D) 4

21. Tenglamani yeching: $\frac{4x-5}{3} = \frac{7}{3}$

- A) 2 B) 6 C) 5 D) 3

22. 3,098 sonini o'ndan birlar xonasigacha yaxlitlang.

- A) 3,2 B) 3,1 C) 3,11 D) 3,21

23. 0,000345 sonini standart ko'rinishida yozing.

- A) $3,45 \cdot 10^{-4}$ B) $3,45 \cdot 10^{-3}$
C) $3,45 \cdot 10^{-3}$ D) $3,45 \cdot 10^{-6}$

24. $\frac{3}{10000}$ ni o'nli kasrga aylantiring.
A) 0,00003 B) 0,0003 C) 0,003 D) 0,03

25. 4 m^2 3 dm^2 4 sm^2 necha kvadrat santimetr bo'ladi?

- A) 43004 B) 41034 C) 40244 D) 40304

26. $9! = 2^x \cdot 3^y \cdot z$ tenglikda $x, y \in \mathbb{N}$ bo'lsa, $x+y$ ning qiymati nechaga teng? ($n! = 1 \cdot 2 \cdot 3 \cdot 4 \cdot \dots \cdot n$)

- A) 8 B) 11 C) 7 D) 10

27. Egizak tub sonlar (egizak tub son – ayirmasi 2 ga teng tub son) berilgan qatorni toping.

- A) (9; 11) B) (11; 13) C) (13; 15) D) (19; 21)

28. 6 ga karrali ikki xonali sonlar nechta?

- A) 19 B) 18 C) 16 D) 15

29. $\frac{5}{11}, \frac{5}{13}, \frac{5}{8}, \frac{5}{7}, \frac{5}{17}$ kasrlar ichidan eng

kattasiga eng kichigini qo'shing.

“Ma'rifat” repetitori

Majburiy fanlar asosida tuzilgan, mavzulashtirilgan testlarning 22-varianti

A) $\frac{19}{120}$ B) $\frac{11}{120}$ C) $\frac{120}{119}$ D) $\frac{119}{120}$

30. a ning qanday qiymatlarida $31 \cdot a$ ko'paytma tub son bo'ladi?

- A) 41 B) 31 C) 29 D) 1

UYGA VAZIFA: Keyingi sonda “Hisoblash qoidalarini (amallar bajarish, arifmetik kvadrat ildiz, miqdorning taqribiy qiymati, sonlarni yaxlitlash, absolut va nisbiy xatolik, sonning moduli, standart shakli)” mavzusiga oid takrorlash testlari beriladi, bunda testlar 6-8-sinf materiallari bo'yicha tuziladi.

Hamza XUDOYBERDIYEV,
G'ijduvon tumanidagi 32-maktabning
matematika fani o'qituvchisi

O'ZBEKISTON TARIXI (9-sinf “O'zbekiston tarixi”)

31. Nechanchi yilda Turkistonda paxtaga o'zgar-mas davlat narxlar joriy etildi?

- A) 1914-yil B) 1915-yil
C) 1916-yil D) 1917-yil

32. XIX asr oxirida ko'pchilik ishlab chiqarishi markazlari O'rta Osiyoning qaysi shaharlarida joy-lashgan edi?

1. Buxoro; 2. Xonqa; 3. Xiva; 4. Xo'jayli;
5. Yangi Urganch; 6. Ko'hna Urganch;
7. Chimboy; 8. Hazoras.
A) 1, 2, 3, 4, 5 B) 1, 3, 5, 7, 8
C) 2, 3, 4, 6, 8 D) 1, 3, 5, 6, 7

33. “Urush frontlariga yana bir – Turkiston fron-ti qo'shildi” degan jumladan quyidagi qaysi tarixiy voqeaga ishora qilingan?

- A) “Vabo isyoni” B) Andijon qo'zg'oloni
C) 1916-yil qo'zg'oloni D) Turkiston Muxtoriyatining e'lon qilinishi

34. Buxoro amiri 1917-yili e'lon qilgan farmoni-da qaysi tadbirlarni amalga oshirishni va'da ber-gan edi?

- 1) odil sudlov, xiroj, zakot va boshqa soliqlarni undirishning barqaror asosini yaratish;
2) mehnat majburiyatlarini bekor qilinishi;
3) amaldorlarga xizmat yuzasidan vazifalarni ijro etish chog'ida qo'shimcha ustama haq olish taqiqlanishi;
4) savdogarlar erkin savdo agentliklarini tuzish;
5) amaldorlarga davlat tomonidan belgilangan maosh tashkil etish;
6) mamlakat uchun foydali bilimlarni rivojlantirish va rag'batlantirish;
7) amir xazinasidan tashqari davlat xazinasini tashkil qilish;
8) davlat kirim va chiqimlarini belgilaydigan budget tashkil qilish;
9) bosmaxonalar ochish;
10) mahbuslarni zindondan ozod etish.
A) 1, 2, 3, 4, 5, 7 B) 1, 2, 4, 6, 8, 10
C) 1, 2, 4, 5, 7, 9, 10 D) 1, 3, 5, 6, 7, 8, 9, 10

35. Chor mustamlakachiligi davrida Turkis-tondagi eng qudratli va uyushgan qo'zg'olon qaysi edi?

- A) “Vabo isyoni” (1892)
B) Andijon qo'zg'oloni (1898)
C) Darvishxon qo'zg'oloni (1885)
D) “Jizzax fojiasi” (1916)

36. Birinchi jahon urushi boshlangach, Turkis-tonda “favqulodda muhofaza holati” e'lon qilingan

bo'lib, “favqulodda holat” tartiblariga rioya et-magan va uni buzgan shaxslarga qanday jazo qo'llanil-gan?

- A) 100 so'mgacha jarima yoki 3 yilgacha qamoqqa olingan
B) 50 so'mgacha jarima yoki 3 oygacha qamoqqa olingan
C) 30 so'mgacha jarima yoki 1 yilgacha qamoqqa olingan
D) 80 so'mgacha jarima yoki 3 yilgacha qamoqqa olingan

37. Kaspiyorti temiryo'li qurilgan yili Buxoro amirligida ...

- 1) Rossiya imperiyasining vakili lavozimi ta'sis etil-di;
2) Baljuvonda Vose qo'zg'oloni bo'ldi;
3) “Rossiya imperatorining siyosiy agentligi” tash-kil etildi;
4) Darvishxon boshchiligida qo'zg'olon ko'tarildi;
5) Vose va Amir Muzaffar o'rtasida so'nggi jang bo'lib o'tdi.
A) 1, 2, 5 B) 1, 2, 4, 5
C) 2, 3, 4, 5 D) 2, 3, 5

38. Farg'ona viloyati gubernatori A.Gippius nima sababdan lavozimidan olib tashlanadi?

- A) xalq harakatlarini bostira olmaganligi uchun
B) imperatorga Turkiston o'lkasida norozilik kayfi-yati haqida bergan ma'lumotni “buyruqni bajarmaslik” deb hisoblanganligi uchun
C) qo'zg'olonchilar bilan muzokaralar olib borib, tinchlik yo'li bilan xalq harakatlarini bostirishga urin-ganligi uchun
D) qo'zg'olonlarning oldini olmaganligi uchun

39. 1916-yilgi qo'zg'olon oqibatida Turkiston aholisidan qancha kishi o'ldirildi?

- A) 673 ming B) 721 ming
C) 300 ming D) 512 ming

40. 1916-yilgi Jizzax qo'zg'oloni rahbarlari va faol ishtirokchilarini aniqlang.

- 1) Nazirxo'ja eshon; 2) Abdurahmon jevachi;
3) To'raqul To'rabekov; 4) Aliqul To'rabekov
5) Eshonqul To'rabekov; 6) Qosim hoji
7) Mirkarimboy; 8) Solihbek doxoh;
9) To'rabek qozi; 10) Qobil hoji.
A) 1, 2, 3, 5, 6 B) 1, 2, 3, 4, 10
C) 1, 2, 5, 6, 8 D) 1, 2, 7, 8, 9

41. XX asr boshlarida Xiva xonligida vujudga kelgan yangi shahar nomi qaysi javobda berilma-gan?

- A) Bo'g'ot B) Mo'ynoq
C) Gurlan D) Taxta

42. To'g'ri ma'lumotlarni belgilang.

- 1) Buxoro amirligida barcha amaldorlar amir to-monidan tayinlangan; 2) XIX asr oxirlarida Rossiya Buxoro orqali Afg'onistonga katta miqdorda movut, chinni buyumlar, baxmal, chit, gugurt va kerosin chiqar-ar edi; 3) XIX asr oxirida poytaxt Xiva shahri va uning tevaragi bevosita qo'shbegining ixtiyorida bo'lgan; 4) Xiva xonligida vaqf yerlaridan soliq olinmagan; 5) XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Gurlanda ham rossiyali-karlarga, ham mahalliy sarmoyadorlarga tegishli kapital jamlangan edi; 6) 1918-yil yanvarda Junaidxon 4 ming kishilik o'tliq otryad bilan Xivani egalladi; 7) Xiva xon-ligida jarchining o'z foydasiga yig'adigan solig'i “afan-nak puli” deb atalgan.
A) 1, 2, 4, 6 B) 2, 3, 5 C) 1, 4, 5, 6
D) 2, 4, 5, 7

43. Jizzax qo'zg'olonini bostirgan harbiy bosh-liqlarni aniqlang.

- A) Putinsev va Gippius
B) Ivanovich va Kuropatkin
C) Afanasyev va Ivanov
D) Korolkov va Kerenskiy

44. Turkiston Muxtoriyatining markazi qaysi shahar hisoblangan?

- A) Toshkent B) Buxoro
C) Samarqand D) Qo'qon

45. 1916-yil voqealarini eslang! Quyidagi jadval-da mos ravishda nechitasi to'g'ri?

№	Qo'zg'olon ko'tarilgan hudud	Sana	Qurbonlar soni
1	Andijon	9-iyul	Qo'zg'olonchilardan 3 nafari o'ldirildi, 12 nafari yarador bo'ldi
2	Eski Marg'ilon	10-iyul	2 mirshab, 63 qo'zg'olonchi o'ldi
3	Toshkent	11-iyul	Qo'zg'olonchilardan 11 nafari o'ldirildi, 15 nafari yarador bo'ldi
4	Shahrixon		Qo'zg'olonchilardan 16 nafari o'ldirildi

- A) bittasi B) ikkitasi C) uchtasi D) barchasi

Jalol BOLTAYEV,
Urganch davlat universiteti talabasi, repetitor

16-VARIANT TESTLARINING JAVOBLARI

ONA TILI															
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	
A	C	B	A	D	B	C	A	B	C	C	D	D	C	A	
MATEMATIKA															
16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28	29	30	
A	A	A	B	C	D	B	A	B	D	B	B	D	C	D	
O'ZBEKISTON TARIXI															
31	32	33	34	35	36	37	38	39	40	41	42	43	44	45	
B	A	C	D	D	B	D	B	A	A	C	D	C	D	D	

Yaxshilar yodi

Shogirdlarining shogirdlari

ijodida ustoz Toʻra Mirzayev ishlari davom etadi

Oddiylik va samimiylik insonga buyuklik baxsh etadi. Akademik Toʻra Mirzayev shunday oddiy va ulugʻ inson edi. Hamma u kishiga bir xil taʼrif beradi: chin maʼnodagi folklorshunos, soʻzi bilan ishi bir, xalq tiynati tabiatiga yaqin, bagʻrikeng, kamtar va samimiy inson. Toʻra Mirzayev oʻzbek xalq ogʻzaki ijodining tom maʼnodagi fidoyisi edi.

“Folklorshunos xalq bilan birga boʻladi, el-yurt dardi bilan yashaydi, begʻaraz mehnati bilan ilm zahmati va mashaqqatini boʻyniga oladi, eng asosiysi, xalq ijodini yurakdan yaxshi koʻradi va ishidan huzurlanadi”, derdi ustoz Toʻra Mirzayev. Xalq baxshilarining hayoti, epik repertuarini tadqiq etgan ustozda baxshilardagi kabi quvvay hofiza juda kuchli edi. Domlaning xotirasini jonli tarix deyish mumkin. Folklorga doir har qanday masala, muammoni hal etishda bu xotira hech pand bermas: aniq, tiniq va asosli javob doim tayyor boʻlardi. Bu xotira qatrlarida akademik Ibrohim Moʻminovning odamiyligidan tortib, Hodi Zarifov bilan kechgan tongotar suhbatlar, Muzayyana Alaviyaning mehrga yoʻgʻrilgan soʻzlari-yu, kasbdosh, maslakdoshlarining fan yoʻlidagi jonkuyarliklari yashardi. Unda baxshilar ovozi-yu doʻmbirasining soz-u ohangi, ilmiy safarlardan tugʻilgan nashidalar jamuljam edi. Bu xotira uchun gina-kudrat, adovat, gʻaraz, hasad mutlaq begona. Koʻpchilik eʼtirof etganidek,

Toʻra Mirzayev haqiqatda hech kimga oʻxshamas bebaho inson edi.

Akademik Toʻra Mirzayev 1936-yil 6-martda Buxoro viloyati Shofirkon tumani Savrak (Quy Savrak) qishlogʻida tugʻilgan. Butun mamlakat ogʻir kunlari boshidan kechirayotgan bir davrda, Ikkinchi jahon urushi yillari oʻrta maktabda oʻqigan. Hayotning yorqin kunlarini faqat ilmda deb bilgan bobosi Mirzo ota nasihati bilan tinimsiz oʻqib (bu haqda uzoq bot-bot xotirlar edi), 1953–1957-yillarda Buxoro davlat pedagogika instituti tarix-filologiya fakultetida tahsil oldi. Institutni muvaffaqiyatli yakunlab, bir muddat oʻrta maktabda ona tili va adabiyot oʻqituvchisi hamda oʻquv boʻlimi mudiri boʻlib ishladi.

Mirzo boboning “Oʻqisang, Ibrohim Moʻminovdek olim boʻlasan”, deya bolalikdanoq shuuriga singdirgan soʻzlari, ilmga boʻlgan qiziqishi ustozni Toshkent sari yetakladi va 1961-yili OʻzR FA Til va adabiyot institutining aspiranturasiga hujjat topshirib oʻzbek folklorshunosligining otaxoni Hodi



Zarifovga shogird boʻldi. Toʻra Mirzayev sadoqatli shogird sifatida ilm yuki, zahmatini yelkasi-ga olib, oʻzbek xalq ogʻzaki ijodini mehr bilan oʻrgandi va Hodi Zarifdan olingan taʼlim asosida oʻzbek folklorshunosligining chin xazinaboniga aylandi.

Toʻra Mirzayev 1965-yili “Alpomish” dostonining oʻzbek variantlari mavzusida nomzodlik, 1986-yili “Oʻzbek xalq baxshilari sanʼati va ular epik repertuarining xususiyatlari” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli yoqladi. Xalq ogʻzaki ijodi durdonalarining toʻplanishi va nashr etilishidagi xizmatlari beqiyos. Ustozning 700 dan ortiq ilmiy, uslubiy, ilmiy-ommabop ish-

lari eʼlon qilingan. Ular orasida 5 monografiya, 6 darslik va oʻquv qoʻllanma, 52 kitob va folklor toʻplamlari bor. Uning rahbarligi va bevosita ishtirokida Ergash Jumanbulbul oʻgʻli ijodiy merosining “Bulbul taronalari” nomli oʻzbek tilidagi besh tomligi va “Pesni Bulbulya” nomi bilan chiqarilgan ruscha uch tomligi, “Oʻzbek xalq ijodi” koʻp jildligining qirqa yaqin kitobi, “Oʻzbek xalq dostonlari” koʻp tomligi, “Oʻzbek xalq maqollari”ning bir nechta alohida majmua holiday nashrlari hamda ikki jildlik akademik nashri, “Alpomish” dostonining beshta baxshi varianti, Rahmatulla Yusuf oʻgʻli repertuaridagi “Goʻroʻgʻli” dostonla-

rining mukammal nashri chop ettirildi. T.Mirzayev tomonidan tayyorlanib, Sankt-Peterburgda nashr etilgan “Alpomish” (1982), “Uzbekskaya narodnaya poeziya” (1990) toʻplamlari, Germaniyada chop qilingan “Oʻzbek xalq qahramonlik eposi “Alpomish” (1984), “Alpomish” dostonining nemischa (Boxum, 1984) va turkcha (Anqara, 2000), oʻzbek dostonlari turkumidan “Erali va Sherali” (Anqara, 2009) nashrlari oʻzbek folklorini dunyoga tanitishda katta ahamiyatga ega boʻldi.

Ustoz Toʻra Mirzayev butun umrini fan va taʼlim taraqqiyotiga baxshida etdi. Yuzlab ilmiy asarlar va oʻziga munosib shogirdlar tarbiyaladi. Hodi Zarif tamal toshini qoʻygan Oʻzbek folklorshunoslik maktabini rivojlantirdi va avlodlarga yetkazishga beminat xizmat qildi. Ustozning mamlakat ilm-fani rivoji uchun qilgan xizmatlari munosib baholandi va “Shavkatli mehnati uchun” medali (1970), Beruniy nomidagi Davlat mukofoti (1973), “Mustaqillik” esdalik nishoni (1992), “Doʻstlik” (1997), “Fidokorona xizmatlari uchun” (2020) ordenlari bilan taqdirlandi.

Buyuk qalb sohibi, atoqli folklorshunos akademik Toʻra Mirzayev hayot boʻlganida bugun 85 yoshni qarshilar edi. Ustoz endi oramizda yoʻq, biroq u yetishtirgan shogirdlar, shogirdlarining shogirdlari ijod etar ekan, Toʻra Mirzayevning ezgu ishlari davom etaveradi. Uning munavvar xotirasi ilm yoʻlida qilingan har bir ezgu amalda yashayveradi.

Yoʻldosh RAHMATOV,
filologiya fanlari nomzodi
Nasiba BOZOROVA,
filologiya fanlari nomzodi

Tilbilimdan bir chimdım

Soʻzning isteʼmol qilmay qoʻyilishi – bu uning oʻlimi. Baʼzan yot soʻzlar tilga oʻzlashgan zahoti bir zumda ommalashib ketadi, ammo shevalarda saqlangan, asrlar osha yashab kelgan baʼzi soʻzlar esa negadir adabiy tilga hech singishmaydi. Masalan, bundan 30–40 yil oldin ancha faol boʻlgan, ammo hamon “shevaga oid soʻz” maqomida qolib kelayotgan “hadaha” soʻzi yoshlar nutqida hozir deyarli

ishlatilmaydi. Bu soʻz hatto “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”ga ham kiritilgan, bu bilan unga goʻyoki adabiy tilga kirish uchun yoʻllanma berilgan. Mana, lugʻatda unga berilgan izoh: “hadaha – tezdan, tezlik bilan, darrov: Militsiyalar hadaha oʻtlanib, yigirma odam boʻlib, yov-yarogʻini osib, otiga qanchi bosib, yoʻl tortdi!” (“Ochilov” dostonidan).

Maʼlumotlarga koʻra, bu soʻz mamlakatimizning koʻpgina hududlarida qoʻllanadi, shuningdek, Tojikistonda oʻzbeklar ham, tojiklar ham, Afgʻoniston oʻzbeklari ham bu soʻzni faol ishlatishadi. “Oʻzbek xalq shevalari lugʻati”da unga shunday izoh berilgan: “hadaha – hadaha (Qashqadaryo, Jizzax) – tez, birdan, bir zumda: “qarəsəm, chishini kossötir mənəə

qarəp keləpti, hədə: ozumni pənəyə ollim” (Qashqadaryo, “qarasam, tishini koʻrsatib menga qarab kelyapti, tezda (hada) oʻzimni panaga oldim”); “hadəhə: yeshʼydʼ yəptʼm, boməsə həmmə yəgʼdʼ cheş bəsʼp ketərdʼ (Jizzax, “tezda eshikni yopdim, boʻlmasa hamma yoqni chang bosib ketardi”). Joylarda bu soʻz, shuningdek, “hadaa”, “hachaha”, “hachaa” shakllarida ham talaffuz etiladi.

“Boburnoma”da bu soʻz “qadagʻa” shaklida uchraydi: “Moʻmin Ali tavochini qadagʻa bila chopturuldikim...” (yaʼni, “Moʻmin Ali tavochi shoshilinch, zudlik bilan oldinga yuborildikim...”) yoki boshqa bir oʻrinda ham ayni shu shaklda ishlatilgan: “Balx va Hisor va Samarqand va Toshkanddagi xon va sultonlarga qadagʻa bila kishilar chopturub...”

“Boburnoma”dan olingan ushbu misollardan anglashiladiki, bu soʻzning turkiy etimologiyaga ega ekanligi ehtimoli koʻproq. Ammo, taʼkidlanganidek, yoshlar oʻrtasida uni isteʼfoda etish tobora kamayib bormoqda. Yoshlar oʻz nutqlarini faqat “ekran tili” bilan chegaralamasdan, “otalar soʻzlari”ni ham tortinmasdan meros qilib olishsa, koʻz oʻngimizda oʻlib borayotgan bu kabi soʻzlarning yana hayotga qaytishi taʼminlangan boʻlar edi.

FAVQULODDA

Bir qarashda bu soʻz – “favqulodda” shaklida, yaʼni “-da” oʻrin-payt kelishigi qoʻshimchasini qoʻshish bilan yasalganday tuyuladi. Chunki “natijada”, “pirovardida” kabi soʻzlar kirish soʻz boʻlib kelganida chindan ham (“natija+da”, “pirovardi+da”) “-da” kelishik qoʻshimchasi ishtirok etadi. “Natija”, “pirovard” soʻzlari tilimizda alohida ham ishlatiladi, ammo “favqulod” degan soʻz mavjud emas. Soʻzning oʻzi boʻlmaganidan keyin unga qoʻshimcha qoʻshishning ham imkoni yoʻq. Shuning uchun u har doim yaxlit – “favqulodda” shaklida ishlatiladi.

Maʼlumki, bu soʻz arabcha “ustida” maʼnosidagi “favq” (“فوق”), aniqlik artikli “-al” (“-ال”) va “odat” (“عَادَة”) soʻzlaridan – “favqul-odat(i)” (“فَوْقُ الْعَادَةِ”) shaklida yasalgan va “odat ustida”, “odatdan tashqari” kabi lugʻaviy maʼnoga ega. Odatda, arab tilida taʼmarbuta – “-” (“-تun”) bilan tugagan soʻzlar oxiridagi “-tun” talaffuz qilinmaydi, deylik,

“jamilatun” (“جميلة”) – jamila, “fotimatun” (“فَاطِمَة”) – “fotima”, shu kabi “odat” soʻzining arabcha yozilishi “adatum” boʻlsa, oʻqilishi – “ada” boʻladi. Shunday qilib, “favqul-odat(i)”ning talaffuzi ham “favqul-oda”, keyinchalik tili-mizda “d” tovushining ikkilanishi yuz bergan va “favqulodda” shakli yuzaga kelgan.

Koʻhna tazkira, manojiblarda “xavoriqi odot”, “xoriqi odot” kabi iboralarni koʻp uchratish mumkin. “Odot” (“عادات”) – “odat”ning koʻplik shakllaridan biri. Ammo “xoriqi” soʻzining oʻzi gʻayriodatiy, gʻayritabiiy inson qobiliyatiga nisbatan ishlatilishini lugʻatda koʻrish mumkin. Soʻfiylarning “xirqa”si ham shu oʻzakdan. Shu bois “xavoriqi odot” iborasi tazkiralarda gʻayritabiiy fazilatlariga ega tasavvuf shayxlariga nisbatan qoʻllanilgan. Hazrat Navoiy “Nasoyimul-muhabbat...” asarida bu ibora koʻp ishlatilgan: “Va andin anvoʻiy karomat va xavoriqi odot zohir boʻlur ermish”.

Abduvohid HAYIT

Xazina

"Ma'nolar otasi"

Kishilik jamiyati taraqqiyoti azaldan davlatlararo, xalqlararo, millatlararo hamkorlik, baynalmilal bironarlik zaminida yangicha tamoyillar, o'ziga xos qirralar kasb etib keladi. Binobarin, hozirgi globalshuv sharoitida yoshlarga, ayniqsa, maktab o'quvchilariga hayoti-yu ijodi jahonshumul ahamiyatga molik buyuk tarixiy shaxslar, ulug' ajdodlarimiz xususida imkon qadar keng, to'liq darajada ma'lumotlar izchil, muntazam berib borilsa, ularning bilimlari, tafakkuri-yu tasavvuri yanada boy, serqirra bo'lib boraverishi shubhasiz.

Yoshlarga turli xalqlar ma'rifati, madaniyati rivojiga munosib hissa qo'shgan buyuk siymolar hayotini, ijodini o'rganish millatlararo birdamlik silsilasining izchil davom etishiga xizmat qiladi. Sharq xalqlari tarixida yuksak mavqe egallagan shunday ulug' zotlardan biri Mirzo Abdulqodir Bedildir. Zardardast ijodkorning hayot va ijod yo'lga qisqacha to'xtalsak.

Ma'lumki, Bedil 1644-yili Hindistonning Azimobod shahri yaqinidagi Patnada tavallud topgan. Uning otasi Mirzo Abdulxoliq o'zbeklarning barlos urug'iga mansub, Shahrisabzda tug'ilib o'sgan va Zahiriddin Muhammad Bobur lashkari safida Hindistonga kelgan ajdodlarining munosib davomchisi, o'z davrining ma'rifatli kishisi sifatida taniqli edi. Bedilning onasi esa X—XI asrlarda Nishopurdan Dehliga ko'chib kelgan eroniyar avlodidan edi. Ayrim manbalarda shoirning volidasi Amir Xusrav Dehlaviyning to'g'ridan-to'g'ri avlodi ekani ko'rsatiladi. Bedil boshlang'ich ta'limni va she'riyat bo'yicha ilk tahsilni onasidan oladi, zero, otasi o'g'li 4 yoshlik payti vafot etgan. Amakisi Mirzo Qalan-

dar hamda tog'asi Mirzo Zarif shoirning ta'lim-tarbiyasida onasiga ko'maklashib, arab, hind, urdu tillarini o'rganishida, tasavvuf g'oyalarini anglashida o'z kuch-g'ayratlarini, bilimlarini ayashmaydi.

Bedilning iste'dodi, tafakkuri bolaligidanoq namoyon bo'la boshlaydi. U o'n yoshida yozgan ruboiylari bilan kishilarni hayratga soladi. Yigirma yoshida ilk bor o'z she'rlari jamlangan devon tuzadi. Ta'kidlash joizki, Bedil izlanuvchan, serg'ayrat, mahsuldor adib-u alloma sifatida g'oyatda boy meros qoldirgan. Uning "Kulliyot"iga taxlangan she'riy asarlar 130 ming misradan ziyod. Nasriy ijod namunalarning hajmi esa 50 bosma toboqdan ortadi. Adib oltmish yoshdalgida yaratgan "Chor unsur" kitobida o'z hayotiga, tarjimai holiga, ijodiy maslagiga doir qimmatli fikrlarini ham bayon etgan. Ruboiy yaratish borasida ham Mirzo Bedil g'oyatda yuksak darajadagi namunalar yaratib, "Abulmaoniy", ya'ni "Ma'nolar otasi" degan faxriy nomga sazovor bo'ldi. Shoir tomonidan yozib qoldirilgan 3861 ruboiy esa hozirga qadar ko'plab Sharq

mamlakatlarida bedilxonlik kechalarining davomli bo'lishiga mustahkam poydevor vazifasini o'tamoqda.

Bedilning "Chor unsur" kitobi qatorida "Tilimsi hayrat", "Muhiti a'zam", "Turi ma'rifat", "Irfon" kabi asarlari ham ma'lum-u mashhur. "Irfon"dan o'rin olgan "Komde va Mudan" dostoni o'zbek kitobxonlariga tanish. Alohida kitob holida o'zbek tilida nashr etilgan ushbu ijod namunasi asosida "O'zbekfilm" ijodkorlari tomonidan yaratilgan "Ikki dil dostoni" filmi ham muxlislar hamon o'zgacha zavq-u shavq bilan tomosha qilishadi.

Mirzo Bedilning o'ziga xos ulug' xizmatlaridan yana biri shuki, u nazmiy bayonda alohida ma'nodor she'riy tilni, ya'ni "hindcha uslub"ni, yevropacha ta'bir bilan aytganda, "bedilizm"ni yaratdi. Mazkur uslub forsiyazon shoirlarning necha-necha avlodiga g'oyatda ulkan ta'sir ko'rsatib, hozirga qadar munosib ifodasini namoyon etib kelmoqda.

Boburiyalar sulolasiga ajdodlaridan boshlangan aloqadorlik Bedil hayotida ham in'ikos etganini ta'kidlash joiz.

1685-yildan to umrining oxiriga qadar Dehlida yashab o'tgan adib otashnafas shoir, boburiyozda malika Zebunnisobegim bilan yaqindan tanish bo'lib, saroyda o'tkazilgan turli anjumanlarda faol ishtirok etardi. Mirzo Bedilning shunday tadbirlarda Zebunniso bilan birga qilgan go'zal mushoirlari ma'lum-u mashhurdir. Shuningdek, Bedil o'z qizini Zebunnisobegim tarbiyasiga topshirgani, u kelgusida shoiralik darajasiga yetgani ham manbalarda qayd etilgan.

O'tmishda "Movarounnahr", "Turkiston" deya atalgan diyorumizda "Bedilxonlik" an'anasi ustuvor-u sobit bo'lib kelgan. Ulamo-yu fuzalo, ziyolilar, ijod ahli yig'ilishib, Bedil asarlari xususida fikr almashishgan, uning ruboiylarida aks etgan ma'nolar borasida mulohaza-yu mushohada yuritishgan. O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning "Yuzinchi ma'no" maqolasida keltirilgan naql ko'pchilikka ma'lum. Zero, bitta ruboiydan eng ko'p ma'noni talqin eta olgan kishi bedilxonlik kechasi g'olibi sifatida e'zozlangan. Bir fozil kishi shunday kechalarning birida Bedilning bita ruboiysidan to'qson to'qqizta ma'noni bayon etib, tahsin-u olqishlarga sazovor bo'ladi. Tunda esa uning tushida Mirzo Bedilning o'zi namoyon bo'lib, ruboiyning yuzinchi ma'nosi ham borligidan voqif etadi.

Sharq adabiyotining buyuk namoyandasi, "Ma'nolar otasi" Mirzo Abdulqodir Bedilning

hayoti va ijodi xususida muxtasar so'z yuritishdan murod-u maqsad shuki, ulug' ijodkor merosiga doir tahlil-u tadqiq, targ'ib-u tashviq ishlari muntazam, izchil, rejali, ko'lamdor ravishda yo'lga qo'yilsa, zamondoshlarimiz-u zamindoshlarimiz tomonidan yaratilajak turli ijod namunalarning, badiiy, ilmiy, ma'rifiy asarlarning yanada ma'nodor, serqirra, chiroyli bo'lishi uchun munosib ma'naviy-ruhiy maydon yaratilishi davomiy bo'lardi. Zero, buyuk ajdodlarning, oliymaqom ijodkorlarning ma'rifati, merosi avlodlarga qanchalik yaqin, tushunarli bo'lsa, insonlararo, millatlararo, xalqlararo ezgulik, birdamlik, bag'rikenglik tushunchalari ham shunchalik yuksak, mustahkam bo'lib boraveradi.

Ta'kidlash joizki, umumiy o'rta ta'lim sohasida, xususan, adabiyot fani darsliklarida Mirzo Abdulqodir ijodi va hayoti o'rganilishiga ham munosib o'rin ajratilishi har tomonlama maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, maktablarda "Bedilxonlik" tadbirlari muntazam o'tkazib turilsa, nur ustiga nur. O'ylaymizki, mas'ul rahbarlar, mutasaddi kishilar maktab o'quvchilari-yu o'quvchilarining keng ommasiga bedilshunoslik yanada yaqinlashuvi uchun tegishli darsliklar-u qo'llanmalar-da, o'quv dasturlarida muayyan chora-tadbirlar o'z aksini topmog'i uchun o'z sa'y-harakatlarini ayashmaydi.

Sattor SHERMATOV,
shoir

Minnatdorlik

Serjant o'g'lim

endi oliy ma'lumotli bo'ladi

Yurtimizda yoshlarga berilayotgan imkoniyatlarni ko'rib, farzandlarimizga havas bilan qaraymiz. Oliy ta'lim tizimidagi o'zgarishlar, o'g'il-qizlarning ma'lumotli bo'lishiga e'tibor qaratilishi ayni muddao bo'lmoqda.

Yaqinda o'g'limning o'qishga tiklanishi bo'yicha tegishli tashkilotlarga murojaat qilib, mutasaddilarning ishidan ko'nglim to'ldi. Farzandim Oybek Bekmatov 2009-yili oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kirgan edi, ammo oilaviy sharoit tufayli bir yildan so'ng o'qishni tashlab ketdi. Bu yil uning o'qishini qaytadan tiklash bo'yicha Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri Abduqodir Toshqulovga murojaat bilan chiqdim. Vazirlik mutasaddilari tezkorlik bilan xatimni o'rganib chiqishdi va bolamning o'qishi 2-kursdan tiklandi. U hozir Urganch davlat universitetining Tarix fakultetida tahsil olmoqda.

O'g'limning o'qishi to'xtab qolgan kezlari ishlab, o'zi qiziqqan soha — favqulodda vaziyatlarda xalqqa yordam berishga intildi. Masalan, o'tgan yilgi Sardoba voqealarida xizmat qilgan serjant o'g'lim, "Mehr-saxovat" ko'krak nishoniga munosib ko'rildi. Aslida u o'z qiziqishi tufayli 13 yildan buyon Favqulodda vaziyatlar vazirligi Xorazm viloyati boshqarmasida haydovchi bo'lib ishlab kelmoqda. Farzandim endi oliy ma'lumotli bo'lsa, bundan-da katta maralarga intiladi.

Feruza IBROHIMOVA

Urganch shahri

Bekniyazov Bayrambay Saparbeyevichning 13.00.01 — Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha "Tarixiy-madaniy meros vositasida o'quvchilarning ma'naviy madaniyatini rivojlantirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Nukus davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019. Ped.34.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 18-mart kuni soat 10:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 230105, Nukus shahri, P.Seytov ko'chasi, raqamsiz uy.
Tel/faks: (61) 229-40-75, 229-40-75; e-mail: nkspi_info@edu.uz

Ilyasova Zuxra Kenesbayevnaning 13.00.02 — Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (informatika) ixtisosligi bo'yicha "Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida informatikani o'qitish metodikasini takomillashtirishning innovatsion texnologiyalari" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Nukus davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019. Ped.34.01 raqamli bir martalik ilmiy kengashning 2021-yil 18-mart kuni soat 14:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 230105, Nukus shahri, P.Seytov ko'chasi, raqamsiz uy.
Tel/faks: (61) 229-40-75, 229-40-75; e-mail: nkspi_info@edu.uz

Allanazarova Sholpan Artikbayevnaning 13.00.01 — Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha "Shaxsga yo'naltirilgan didaktik vaziyatlarda o'quvchilarni bahs-munozaraga undash mexanizmlari" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Nukus davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019. Ped.34.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 19-mart kuni soat 10:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 230105, Nukus shahri, P.Seytov ko'chasi, raqamsiz uy.
Tel/faks: (61) 229-40-75, 229-40-75; e-mail: nkspi_info@edu.uz

Babasheva Gulzavira Bektemirovnaning 13.00.01 — Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-biluv motivatsiyasini rivojlantirishning didaktik tizimi (Qoraqalpog'iston maktablari misolida)" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Nukus davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019. Ped.34.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 19-mart kuni soat 14:00 dagi majlisida onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 230105, Nukus shahri, P.Seytov ko'chasi, raqamsiz uy.
Tel/faks: (61) 229-40-75, 229-40-75; e-mail: nkspi_info@edu.uz

Kompyuter

Inson aqli yuksalib,
Kashfiyotlar qilmoqda.
Kosmosga parvoz qilib,
Oy sirini bilmoqda.

Ortib borar kundan-kun
Texnikaning rivoji,
Dengiz ortini bugun
Ko'rmoqning bor iloji.

Ixtirolar ichida
Eng yuksagi – kompyuter.
Qani, quloq beraylik,
Uning o'zi nima der.



Kompyuter

Men kompyuter bo'laman,
Aqlga lim to'laman.
Hisoblayman bir zumda,
Barchani lol qilaman.

Menda yozishing mumkin
Qancha-qancha matnni.
Topsang xato, qiynalмай
To'g'rilaysan xatingni.



Klaviatura

Klaviatura – o'ng qo'lim,
Tugmalar qator-qator.
Senda gar bo'lsa bilim,
Caps Lock ham asqotar.



Sichqoncha


Jajjigina qismimning
"Sichqoncha" der ismini.
Qimirlatib qo'ysang bas,
Ko'rsatadi ishini.



Protessor va disk yurituvchi

Protessor – bosh miyam,
Bordir kuchli xotiram.
Diskovodga disk solsang,
Aylantiraman biram.

Mening yuzim – monitor,
Televizor emasman.
Adashtirsang u bilan,
Seni do'stim demasman.



Qo'shimcha qurilmalar
So'yilaslar o'zlari.
Har birini tanib ol,
Tinglab aytgan so'zlarin.



Printer

"Printer" derlar meni,
Qog'ozlarni yutaman.
Siyoh purkab ularga,
So'ng qo'lingga tutaman.
Monitorida ne ko'rsang,
Qog'ozga chop etaman.



Skaner

Qog'ozdagi rasmni
Kiritgum kompyuterga,
Ishlatishni bilmasang,
Peshonang botar terga.
Tayyor bo'lgach hujjating,
Rahmat de skanerga.



Modem

Internet olamiga
Ulab bergum bir zumda.
"Modem" deyishar meni,
Eng keragi o'zim-da.
Simli-simsiz ishlayman,
Pulni juda xushlayman.



Ovoz kuchaytirgich (kolonka)

Ovoz kuchaytirgichman,
Karnaydir boshqa nomim.
Jaranglar kuy-qo'shiqlar,
Ishga tushgan har onim.
Kompyuter men bilan
Faxrlansa arziydi,
Unutma, aziz do'stim,
Men-la bayram qiziydi.



Naushnik (quloqchin)

Meni ko'rsang, ey Bilol,
Qulog'ingga taqib ol.
Ulab kompyuteringga,
Tovushimga quloq sol.
Xalal bermay hech kimga
Tinglaysan kuy-qo'shiqlar.
Shuning uchun bolalar
Doim menga oshiqar.

Odinaxon ABDURAHIMOVA

